

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi

*Halima
Xudoyberdiyeva
nomidagi
Ijod maktabi*

**o‘quvchilarining ijodidan
namunalar**

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2024

UO'K 373.5.015.31:17.022.1(575.1)

KBK 74.200.51(50')

H 22

Loyiha rahbari

Hilola Umarova

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi / [Matn]: to'plam / S. Akromjonova [va boshq.]; Mas'ul muharrir S. Nazarov – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 156 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyat-larga sadoqat, ajdodlarimiz merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, zamonaviy, erkin fikrلaydigan hamda badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalarida jahondagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan ijodkor shaxsnı shakllantirish maqsadida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi tashkil etilgan.

UO'K 373.5.015.31:17.022.1(575.1)
KBK 74.200.51(50')

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2024

ISBN 978-9910-9138-7-7



Zamonlar o‘tadi, muhit o‘zgaradi. Bugungi poydevor natijasini xalqimiz, albatta, ko‘radi. Yoshlarimizdan yana ko‘plab Buxoriylar, Beruniylar, Ulug‘beklar chiqadi.

**Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



HALIMA XUDOYBERDIYEVA
NOMIDAGI
ijod maktabi

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
tashabbuslari bilan yosh avlodni
vatanparvarlik, milliy qadriyatlargacha
sadoqat, ajdodlarimiz merosiga
vorislik ruhida tarbiyalash,
zamonaviy, erkin fikrلaydigan hamda
badiiy adabiyot va boshqa ijod
sohalarida jahondagi tengdoshlari
bilan raqobatlasha oladigan ijodkor
shaxsni shakllantirish maqsadida
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi
ijod maktabi tashkil etilgan.



**Sevinch
Akromjonova**
11-sinf o‘quvchisi

MARD ASKARLAR

Yurtimiz sarhadlari,
Metin kabi mustahkam.
Jonni fido qiluvchi,
Tayanchdir o‘g‘lonlar ham.

Qush kabi qilib parvoz,
Yo‘latmas ko‘kka ham yov.
Olovday yonib-jo‘shib,
Kurashadi beayov.

Alpomish, Manguberdi,
Xislatlari sizda jam.

Amir Temur ruhi ham
Qo'llab turgaydir har dam.

Ajdodlarning yo'lini
Davom aylab har qachon,
Xalqimiz ishonchini,
Oqlagaysiz begumon.

“Doim olg‘a” shior-la,
Shijoatga tin bermang.
Cho‘g‘dek qaynoq qalb ila,
Dushman bilan qiling jang.





Muxlisa
Rajabaliyeva
11-sinf o‘quvchisi

VATAN

Halima Xudoyberdiyevaga

Samolarga ko‘z tikdim uzoq,
Yulduz bo‘lmoq ilinjida men.
Sizday yog‘du bo‘lmadim, biroq,
Ko‘p yashadim o‘y pinjida men.

Boyovutning bog‘larin kezdim,
“Oq olmalar” o‘pdi dilimdan.
Pok ruhingiz taftini sezdim,
O‘zni anglab she’riy bilimdan.

Sirdaryoning jo'shqin to'lqini
Bo'ylab yurdim surgancha xayol.
Irmoqlar ham ko'rsatib sizni,
Deydilarki: "Muqaddas ayol".

Tuyg'ularim dilda bo'ldi shod,
Ortib borib ehtiromingiz.
Tortiq qilib o'zgacha hayot,
Kuch baxsh etdi menga nomingiz.

HADIK

Baxtiyor o'ynardik, quvnoq qalb ila,
O'ylasam xotira o'zga tortadi.
Go'yoki, yurakda bo'ldi zilzila,
Bolaga aylanish hissi ortadi.

Quvlashib bir-birimiz juda shod edik,
Bekinib o'ynardik u yon, bu yonga.
Endi-chi, yurakda bordir bir hadik,
Afsus, qaytolmasmiz beg'ubor onga.

Soatning millari uraverar bong,
Bugun asta-sekin ko'taramiz qad.

Va o'sib boradi kundan kunga ong,
Bolalik zavqini yo'qotar faqat.

UMID

Yuragim tubidan yangragan sado,
Butun vujudimni solar titroqqa.
Uni o'ylab oxir bo'laman ado,
Bardosh berolmaydi ko'ngil firoqqa.

Ko'zimga ko'zlar tushadigan chog',
Hayodan yuragim yorilayozar.
O'tli nafasiga qalbim bir quchoq,
Hasratlarga to'la baytlarni yozar.

Muhabbatzor kezib yorug' dunyoda,
Bir javob topmadim ishqqa munosib.
Chin dildan sevsam-da haddan ziyoda,
Dard to'la she'rlarni yuribman yozib.

Aqlga bo'ysunmas ko'ngil istagi,
Lek umidin uzmas shukur beedad.

Sevmoqqa undadi, tinmay qistadi,
Kutgancha hamisha Tangridan madad.

IZHOR

Atirgulim, yaproqlaring to‘kma zinhor,
Mayli, ular sevmas seni, men sevaman.
Garchi berar tikanlaring jonga ozor,
Seni butun boring bilan chin sevaman.

Yuragimga ishqning nomin chizgan o‘zing,
Sen bor ekan, tor dunyoni keng ko‘raman.
Yaproqlaring ko‘zga surtgum, tushgan izing,
Seni go‘yo qalbim bilan teng ko‘raman.

ILHOM DILNI YO‘QLARMI?

Ilhomga qoldim hayron,
Kelmaydi yo‘qlab sira.
Qalam olganim zamon,
Fikrim tortadi xira.

Ilgari olib qog‘oz,
Terardim so‘zdan marjon.
Ma’noli edi biroz,
His etib yayrardi jon.

Bo‘ldimikan yo xafa,
Bermadimmi e’tibor?
Yozar edim har safar,
Garchi bo‘lsam ham bemor.

Axtarganda sababin,
Anglab yetdim aybimni.
Keltiribman g‘azabin,
Sof saqlamay qalbimni.





**Marjona
Abdumalikova**
11-sinf o‘quvchisi

YOLG‘ONNING UMRI QISQA

(She’riy ertak)

Qadim o‘tgan zamonda,
Olis o‘rmon tomonda.
Bir sichqoncha bor edi,
Hayvonlar bezor edi.

U gapirar ko‘p yolg‘on,
Debdi tulkiga bu on:
– Mushuklar qo‘ymas omon,
Qutqargin, ey tulkijon.

Tulki ishonib gapga,
Qarabdi har tarafga.
Mushuk yo‘q ekan ko‘rsa,
Sichqon kularmish rosa.

— Ajab bo‘pti, ey tulki,
Seni aldadim chunki.
Tulki debdi: — Ey sichqon,
Bu ishing juda yomon.

Boshga balo keltirar,
Shunda aqling ham kirar.
Yana aytib ko‘p yolg‘on,
Qochib ketibdi sichqon.

Yo‘lda ayiq chiqibdi,
Yolg‘onga yo‘liqibdi.
Hadeb dermish: — Ayiqjon,
Mushuklar quvar har on.

Ayiq ishonib gapga,
Qarabdi chor-atrofga.
Mushuklar yo‘q hech yoqda,
Kular sichqon bu yoqda.

Ayiq debdi: – Ey sichqon,
Nega to‘qiysan yolg‘on?
Balo bo‘lar bu bo‘hton,
Endi bas qil, ey sichqon.

– Senga nima, ayiqjon,
Bas qilmayman hech qachon.
Sichqon qochib ketibdi,
Qishloqchaga yetibdi.

Bir payt bir gala mushuk,
Quvibdi rostdan uni.
Qochish bilan o‘tkazdi,
Yolg‘onchi sichqon tunni.

Tulkidan yordam so‘rar,
Bechora rosa yig‘lar.
– Meni qutqar, tulkijon,
Mushuklar qo‘ymas bu on.

Tulki bunga ishonmas,
Sichqonga parvo qilmas.
Sichqon qochganda yana,
Ayiqni ko‘rdi mana.

So‘rasa darhol yordam,
Parvo qilmabdi u ham.
Dodlab qochibdi, biroq
Qo‘lga tushibdi shu chog‘.

Shunday qilib oxiri,
Mushuklar yebdi uni.
Sichqonning holiga voy,
Mana bitibdi kuni.

Bolalar, ko‘rdingizmi?
Bunday yashamoq yomon.
Yolg‘onning umri qisqa,
Pand berar har zum, har on.

ONAM

Oq-qoraga to‘la ekan, bu hayot,
Gar qolmasa yurak uchun hech najot,
Yiqilsam-da, suyaguvchi ulug‘ zot,
Yaxshiyamki, bu hayotda onam bor.

Betob bo‘lsam, o‘tar tunlari bedor,
Gar qolmasa vujudimda hech mador.

Sinovlarga bardoshlidir – ulug‘vor,
Yaxshiyamki, bu hayotda onam bor.

DILDAGI TILAKLAR

Boringizga ming shukur, onam,
Siz-la yorug‘ ko‘ngil koshonam.
Mehribonim – yolg‘iz-yagonam,
Siz baxtimga doim sog‘ bo‘ling.

Jannatimsiz – baxtim o‘zingiz,
Baxt bag‘ishlar har bir so‘zingiz.
Nam bo‘lmasin mudom ko‘zingiz,
Siz baxtimga doim sog‘ bo‘ling.

KITOBLAR O‘QIYLIK

Kitob – sadoqatli o‘rtoqdir har on,
Ne’matidan mudom yuksalar inson,
Mutolaaga topib hamisha imkon,
Kitoblar o‘qiylik, aziz do‘sstarim.

Kitob – ovozi yo‘q muallim erur,
O‘qisam, yo‘qolar kam-u ko‘sstarim.

Barchamizga cheksiz tarbiya berur,
Kitoblar o‘qiylik, aziz do‘stlarim.

Kitob o‘xshar go‘yo nurli quyoshga,
Kitob bilan ravon bo‘lar so‘zlarim.
Yorug‘ kunlar berar keksa va yoshga,
Kitoblar o‘qiylik, aziz do‘stlarim.

Kitob – ezguliklar kuylangan bayot,
Ravshanlashib borar ko‘ngil ko‘zlarim.
Kitob – buyuklarni buyuk qilgan zot,
Kitoblar o‘qiylik, aziz do‘stlarim.

TANBEH

Qishloqda kichik bir oila yashardi. Ota-onha va
ikki qizi bir uyda kun kechirar ekan. Qizchalarni
har doim onasi koyir ekan:

—Doim men aytsam, ish qilasizlar. Nega
unaqasizlar?

— Bilmadik, — deyishar ekan qizchalar kulib.
Bir kuni juda g‘alati voqea yuz beribdi.
Ularning Shokir bobo ismli qo‘shnisi bor ekan.

Tushlik vaqtida ular ovqatlanib bo‘lishgach, qizlar dasturxonni yig‘ishtirmay televizor tomosha qilib o‘tiraveribdi. Shunda otaning jahli chiqib:

– Qani, turinglar-da, Shokir boboni chaqirib chiqinglar, – debdi. Qizchalar Shokir boboning uyiga ketayotganda otasi ularni to‘xtatibdi:

– Nega ketayotganlaringni bilasizlarmi? – debdi.

– O‘zingiz Shokir boboni aytib chiqinglar, dedingiz-ku, – deyishibdi qizlar.

Shunda otasi:

– Mayli, aytib kelinglar, kelib dasturxonni yig‘ishtirib olsin, – debdi jahli chiqib.

Bu gapdan keyin qizlar aytmasa ham, o‘zлari ishlarni qiladigan bo‘lishibdi.





Yorqinoy
Qo'zibekova
11-sinf o'quvchisi

TARADDUD

Yurtimda yaraldi ajib bir maskan,
Sirdaryo bag'rida chaqnadi uchqun.
Xushbo'y iforlarin taratib gulshan,
Ijodkor yoshlarni chorladi bugun.

Qo'lga qalam olgan yosh o'g'il-qizlar,
Yuksak orzularni tugar ko'ngliga.
Nurli ma'rifatning manzilin izlab,
Axir otlangandir maqsad yo'liga.

KO'NGILLAR SOHIBI

Ona bor, dillar shod, ko'ngillar ravshan,
Hayot ham go'zaldir, olam munavvar.
Gullab turgan qalbi misoli gulshan,
Onalar duosi – bebaho gavhar.

Bardoshi tog'larni qiladi tolqon,
Mehri-da kuch berar sinoati bor.
Farzandlarin o'ylab mehnatda har on,
Umrini o'tkazar chekkancha ozor.

OY

Ko'kka boqsam,
Oy porlar tunda,
Zamin uzra kumush nur sochib.
Yulduzlar ham zavq olib undan,
Nurlanadi chiroyin ochib.

Ko'kka boqsam,
Oy tinmas hamon,
Hatto menga ulashib zavqin.
Yuragimda aks etib samo,
Rasmin chizar yop-yorug' shavqning.



Mehribonu
Ahmadaliyeva
11-sinf o‘quvchisi

SAODAT SOHILI

Ona – dunyodagi eng go‘zal inson,
Qalbida ezgulik nuri mujassam.
Goho hasratlardan yig‘laganim on,
Mehr-muhabbat ko‘nglimga malham.

Kulsam – quvonchimdan yorishgan yuzi,
Yig‘lasam – mendan ko‘p zaqqumlar yutgan.
Tashvish kemasida bir umr suzib,
Saodat sohilin hamisha kutgan.

SAYOHAT

Yana sayr etib – erta sahardan,
Ko‘rdik mo‘jizalar ertakday go‘yo,
Axir Toshkentday azim shaharda –
Orzular bo‘larkan chindan ham ro‘yob.

So‘lim go‘shalarda qildik sayohat,
Ko‘zlar quvnayverdi ko‘rib barini.
Va yuragimiz ham topib nur – rohat,
Tinmay alqayverdi poytaxt bag‘rini.





**Zebo
Qahhorova**
11-sinf o‘quvchisi

ONAJONIM KULMASA

Boshim uzra sochsa quyosh nur,
Bunda tanim qiladi huzur.
Lekin hayot qayg‘uli bo‘lur,
Onajonim kulmasa agar.

Volidamga barcha ehtirom,
Sirli so‘zi dilni qilar rom.
Yo‘qoladi halovat – orom,
Onajonim kulmasa agar...

ISTAK

Nomingiz mangudir ijod bog‘ida,
Saodatli ayol – Halima ona.
Siz borsiz doimo qalb ardog‘ida,
Tovlanib turasiz misli durdona.

Hamisha yarqirar so‘zingiz nурдан,
Qalblarni yoritar quyosh misoli.
Yuraklar sevinar she’rdan – huzurdan,
Hayot g‘amlaridan bo‘ladi xoli.

Iltijolar qilib parvardigorga,
Izingizdan bormoq istaymiz biz ham.
Kirib borajakmiz ijod – gulzorga,
Qalamimiz charxlab yanada har dam.





**Manzura
Mamatova**
11-sinf o‘quvchisi

ORZU KEMASI

Orzular ummondir, kelajak porloq,
Ko‘ksimda tug‘ilar otashin so‘zlar.
Maftun etib borar ijodiy mayoq,
His etar hayotdan quvnagan ko‘zlar.
Parvozga shaylangan oppoq kabutar,
Bu damda otlanar ko‘kni quchishga.
Quvonib chog‘lanar misli orzu – zar,
She’riy tuyg‘ular ham qalbdan uchishga.
Yuksak e’tiborning mevasi totli,
Ilhomlar olmoqqa turibdi chorlab.
Orzu kemasida suzmoq rohatdir,
Dildan shodliklaring gar tursa porlab.



Dilafruz
G'ofurova
11-sinf o‘quvchisi

HAYOT TUHFASI

Yotarman... Men bilan olishar ajal,
O, hech tan bermasman, u-chi bermas yon.
Tunning qoq yarmiga kelgani mahal,
Tortib ketdi zulmat o‘ziga tomon.

Ko‘zim ochib boqsam, atrofim oppoq,
“Kim bor, kim bor!” – hayhot jimjitlik, sukut.
“Bu yer – shifoxona. Qo‘rqma, qizaloq” –
Hamshira so‘zlardi. Yonardi vujud.

Undan o‘zga hech kim eshikni ochmas,
Qalbim eshigini ochgan lek isyon.

Tanamdan og‘riqlar azobi o‘chmas,
Qo‘rquv g‘alayoni etmoqda sarson.

Afsus-nadomatlar dilda hukmron,
Umidsizlik qushi dilimga qo‘ndi.
Tilimga kelmaydi biror bir kalom,
Ajal chorloviga voh, jismim ko‘ndi.

O‘yga tolgan holda yotganim zamon,
Kutilmagan vaqtda eshik ochildi.
Ko‘nglimda mavhum his uyg‘ondi shu on,
“Senga bir dasta gul hamda xat keldi!”

Umrin poyoniga yetgandi salkam,
Bag‘ridan yulmoqqa shay edi hayot.
Gul va xat – e’tibor qutqardi, Egam!
Kichik e’tibordan bo‘ldim men bunyod!



QOR YOG‘GANDA

Charaqlagan ko‘zlar intizor,
Qahramonlar qaytishdi mana.
Barqut kiydi ichiga sig‘may,
So‘ng boshlandi katta tantana.

Avj uradi sokinlik kuyi,
Siylab turar achchiq shabboda.
Raqs tushib mitti parchalar,
Chiroq lip-lip yonar samoda.

Oyoq qo‘yish xuddiki gunoh,
Dil istamas qadam bosmoqni.
Yakson qildi qaysi beshafqat,
Jazolaymiz endi boshmoqni.

Quvonchlarim yorilib ketib,
Barqutlarim o‘pgandim quchib.
Chidolmadi uyalganidan,
Yig‘lavoredi qo‘limdan tushib.

Go‘zal ekan sukut-la sevmoq,
Ko‘rish bo‘lsa, eng chiroyli baxt.

Ishqim yolg‘iz Alloh bilsa, bas,
Sog‘inganda qor yog‘sin faqat.

MANZARA

Quvnoq suhbat qurib, goh kular olam,
Shivirlashar barglar tinimsiz sokin.
Biroq sezolmaydi beparvo odam,
Tevarak ham yashar hayotda lekin.

KO‘RMANA

Bilmam, nedan yuragimning g‘ashligi,
Ammo qandaydir xavf borligi aniq.
Qani, qayda qoldi, qalb dilkashligi,
Tobora xavotir to‘ldi-ku liq-liq.

Men hamon bilmayman bag‘rim dardini,
Taxminlarim kabi yo‘qdir davo ham.
Ehtimol, galidir bardosh, sabrning,
Uni qalamim-la ko‘raman baham.

Sabablar bo‘lolmas ruhning taskini,
Yuragim bermoqda baxtga ko‘rмана.

Totish kerak ekan azob ta'mini,
So'ngra bari bitar, bo'lar tantana.

ISHONCH

Menga ishonch bermang, bermang va'dalar,
O'ylab yuraveray siz haqgo'ysiz deb.
Aldansam, ruhimga nishlar qadalar,
Va unsiz yig'larman pushaymonlar yeb.

Garcha siz daraxtning eng baland shoxi,
Men esa bir ojiz bargiman uning.
Shamolda siz mag'rur turgan chog'ingiz,
Olislab ketaman men sizdan ming-ming.

Men sarson yuraman, kezib yuraman,
Yuzlashib eng go'zal haqiqatlar-la.
Sizdek yolg'onlardan uzoq turaman,
Unut bo'lmasa ham mash'um xotira.

Yana bahor kelar, charaqlar quyosh,
Kurtaklar unadi, bandingizda ham.
Siz yangi barglarga ochasiz quloch,
Men yerning bag'riga singib ketgan dam.



Muxlisa
Hamidjonova
11-sinf o'quvchisi

AHD

O'zbekiston nomin jahonga,
Keng yoymoqqa hamisha shayman.
Bayrog'ini tikib men jonga,
Shon-shavkati uchun yashayman.

Yuksaklikda qilaman parvoz,
Chiniqtirib yurakni – tanni.
Va nomini ajdodlarga xos,
Tanitaman yurtni – Vatanni!

YASHIL XIRGOYI

Tevarakda – atrofda,
Mayin shabada kezar.
Osmonimiz musaffo,
Qalbimni quvonch bezar.
Jilg‘alarning ovozi,
Yangrayveradi bot-bot.
Ko‘rib qushlar parvozin,
Sevinadi – ko‘ngil shod.
Beg‘ubor osmonimiz,
Va quyosh tursin porlab.
Nur to‘lib har onimiz,
Yuksakka tursin chorlab.

GULZOR

Turli gullar o‘sar bizning gulzorda,
Shirin iforiga to‘ymaysan bir zum.
Havaslar uyg‘otar – ranglari bor-da,
Jilvalanib turar bahoriy mavsum.
Tabiat husniga qo‘sadi chiroy,
Qizg‘ish, sarg‘ish rangda ochilgan qarang.
Kayfiyat bag‘ishlab, dildan olar joy,
Ko‘zni qamashtirar gullar rang-barang.



Fayziniso
Irisqulova
11-sinf o‘quvchisi

KO‘NGIL ISTAGI

Vatan ozod, yurt obod,
Bundan dillar bo‘lar shod.
Qalbda quvonchlar jo‘shar,
Ezgulik hissin qo‘shar.

Yog‘ilar ziyo – nurlar,
Obodlikdan nishondir.
Ilm – bebaho durlar,
Bu berilgan imkondir.

Go‘zal o‘lkada har zum,
Yuksalsin har bir inson.

Yashnab bahoriy mavsum,
Hayot bo‘lsin guliston.

SOG‘INDIM SIZNI

Men sog‘indim sizni, onajon,
Shirin-shakar har bir so‘zingiz.
Chorlab turar hamisha, har on,
Mehr to‘la nur ko‘zingiz.

Men sog‘indim, gul-u rayhondan,
Shirin bo‘lgan xush iforingiz.
Siz har lahza ko‘ngil bo‘stondan,
Ayamaysiz mudom boringiz.

Osmondagi to‘lin oyim – siz,
Talpinaman quchog‘ingizga.
Duo qiling tinmay doim – siz,
Mehr berib gul – bog‘ingizga.



**Shahzoda
Hamroqulova**
11-sinf o‘quvchisi

MUVASHSHAH

Sog‘inch degan nom olgan,
Og‘riqli bir tuyg‘u bor.
G‘amlarni dilga solgan,
Intizor qilar bisyor.
Nimaga bu tuyg‘u bor,
Deb o‘ylayman men hamon.
Intilmasdan baxtiyor,
Menimcha, bo‘lmas inson.
Maktabim tushib yodga,
Ardog‘ini madh qildim.
Kirishib men ijodga,
Tinmay olg‘a intildim.

Axir ko‘ngil bog‘imda,
Bordir sog‘inch degan – shoh.
Intiqman, quchog‘ingga,
Maktabim – qutlug‘ dargoh.

MAKTABIM

Jonajon maktabim –
Bilimlarning makoni,
Ijodkor do‘sstarimni,
O‘sstirgan gul – bo‘stoni.
Ko‘rinishi maftunkor,
Turar doimo chorlab.
Bunda bizlar baxtiyor,
Baxtimiz tinmay porlar.
Ajoyibdir darslar ham,
Turfa hamda xilma-xil.
Go‘zal o‘tadi har dam,
Sevinchga to‘lib ko‘ngil.
Maktabim – qadrdonim,
Etavergin bizni shod.
Nurga burkab har onim,
Gullayversin dil – ijod.



Zamira
Shermamatova
11-sinf o‘quvchisi

BOYOVUTLIK SHOIRA...

Yurtimizning go‘zal, bir so‘lim joyida,
Yashab ijod qildi, doim mardona.
Sokin, goh tez oqdi ijod soyida,
Boyovutlik shoira – Halima ona.

Yashadi tinimsiz xalqim deb har kun,
Har doim izlandi gar bo‘lsa ham tun.
Va dillarni qildi o‘ziga maftun,
Boyovutlik shoira – Halima ona.

Izingizdan olg‘a yuramiz har dam,
Kelajak sari to tashlaymiz qadam,

Siz bizga yo‘ldosh siz, siz bizga hamdam,
Boyovutlik shoira – Halima ona.

SHIRIN HISLAR

Kindik qonim to‘kilgan,
Tuprog‘ingga, ey Vatan.
Sen-la umrim charog‘on,
Bag‘ringda yayraydi jon.

Men bir erka qizingman,
She’riyatga oshno dil.
Madhingni kuylash uchun,
So‘zlar tizaman nuql.

Hattoki, ko‘kda har dam,
Kuylar madhing oqqushlar.
Shirin hislarim – Vatan,
Senga bo‘lsin olqishlar.



Zuhra
Tojiboyeva
11-sinf o'quvchisi

KO'NGLIM KUYI

Vatanim, qalbimning charog‘bonisan,
Yashnagan ko‘nglimning kuy – alyorisan.
Sen o‘zing bebaho mehr konisan,
Hayotimning ma’nosи – umrim borisan.

Sendan olislarda yashamoq mushkul,
Sen uchun bitilgan qanchalab doston.
Mening yuragimda ulg‘aygan his – gul,
Iforing yoqimli, hur O‘zbekiston.



**Mohlaroyim
Haydarova
11-sinf o‘quvchisi**

ONAMSAN, VATAN

Vatan ona kabi muqaddas diyor,
Vatanni asramoq kerakdir har on.
Vatan omon bo‘lsa, xalq ham baxtiyor,
Vatan omon bo‘lsa, dillar ham shodon.

Qayerga borsam ham sog‘inib seni,
Yuragim chorlaydi, sen o‘zing tomon.
Bag‘ringda bolangdek suyib sen meni,
Erkalab yashaysan onamdek hamon.



**Gulсанам
Eshqulova**
11-sinf o‘quvchisi

MEHR RISHTASI

Sevinch bugun negadir xafa. Lekin onasining mayin ovozini, erkalab “Aqlligim, asalim” deyishini eshitsa, balki, chehrasi yorishar. Ammo, buning hech iloji bo‘lmadi. Osmon qora to‘nini kiygach, uning ahvoli ancha yomonlashdi. Sevinchning opasi Mehribonu uning ko‘nglini qancha ko‘tarishga harakat qilmasin, qancha onasi kabi erkalamasin baribir u xafa edi. Dadasi vafot etganiga besh yil bo‘ldi. Onasi ishslash maqsadida Moskvaga ketgach, opa-singillar ammasining qo‘lida qoldi. Ammasi davlat ishida ishlar, uyiga kech kelardi. Ammasi kelganida Sevinch

bilan Mehribonu uqlab qolardi. Bugun esa ular ammasini uqlamay kutdi. Ammasi kelishi bilan Mehribonu:

- Ammajon, Sevinch ayamni sog‘inibdi. Iltimos, telefon qilib bering!
- Menda telefon raqami yo‘q.
- Iltimos!!!
- Yo‘q, dedim-ku.

Mehribonu ammasida onasining telefoni borligini bilardi, chunki ikki kun avval ammasi onasiga telefon qilib, pul jo‘natishini aytgan edi. Ammasi uxlagandan so‘ng, Mehribonu sekin uning xonasiga kirdi-yu, telefonini olib chiqdi. Va onasining nomerini izlashga tushdi, topdi. Tezda telefon qildi. Onasi telefonni oldi. Mehribonu esa singlisini xursand qilish uchun telefonni birinchi unga berdi. Shu payt Sevinchni ko‘rsangiz edi, bir opasiga, bir telefonga qarab, gapira boshladi:

- Ayajon, tezroq keling, sog‘inib ketdim!!!

Keyin esa ko‘zlaridan marjon-marjon yosh toma boshladi. Telefonga ham Mehribonu, ham Sevinch gapirardi. Onasi esa:

– Qizaloqlarim, nega yig‘laysizlar? Men erta-ga uyg'a boryapman.

– Aldamayapsizmi? – ikkalasi ham bir ovoz bilan – Uraaa!!!

Shu payt baland ovozdan ammasi uyg‘onib ketdi. Va “Nima qilyapsizlar?” – deb baqira boshladi. Ammasi ikki farzandi vafotidan so‘ng eri bilan ajrashdi. Hozir yolg‘iz. Shuning uchun ham asabiy. Buni ular yaxshi bilganlari uchun hech nima demay telefonni o‘chirib, yashirishdi. So‘ng:

– Ammajon, dam olavering. O‘zimiz, shunchaki.

– Baqirishavermanglar.

– Xo‘p bo‘ladi.

Ammasi xonasiga kirib ketgach, uning uxlashini kutishdi va u uxlashi bilan telefonni joyiga qo‘ydi. So‘ngra bir-biri bilan quchoqlashib, bir kulib, bir yig‘lab gaplashishdi.

Oradan ikki kun o‘tgach, onasi Moskvadan uchib keldi.



**Gulbahor
Yorqinova
11-sinf o‘quvchisi**

QISHLOG‘IM

Poyoniga yetmas sog‘inchim,
Qaytmoqdaman quchog‘ingga men.
Sog‘inchlarim yuragimda lim,
Sog‘indingmi, bir bor meni sen?
Ona qishlog‘im.

Goh yoningga bormoqlik qiyin,
Mehring tomon intilaman men.
Sochim silar shabbodang mayin,
Sog‘indingmi, bir bor meni sen?
Ona qishlog‘im.

Senda o'sdim, baxtimni topdim,
Sen onamsan – dilbandingman men.
Shuning uchun bag'ringga chopdim,
Sog'indingmi, bir bor meni sen?
Ona qishlog'im.

SOG'INCH

Ey qadron, ustozim,
Sizni juda sog'indim.
Kuy chalib yurak sozim,
Ijod bilan ovundim.

Yurakdan olgansiz joy,
Qoldirgansiz o'chmas iz.
Nur taratib misli oy,
Mehr ularhgansiz siz.

Sizsiz dunyo zimiston,
Suvsiz qolgan niholmiz.
Chanqoq qonmasdan shu on,
Kuch-quvvatsiz, beholmiz.

Bo‘lsangiz yonimizda,
Joyida bo‘lar bari.
Ilmingiz ongimizda –
Fikrlarning gavhari.

BAHOR QUYOSHI

Yana yoz, kuz, qish o‘tib,
Bahor ham kirib keldi.
Qorlar ham erib ketib,
Shamollar uchib yeldi.

Maysa bugun noz ila,
Yer qa’ridan chiqmoqda.
Qushlar turli soz ila,
Kuylaydi ayni chog‘da.

Boychechak to‘la qirlar,
Shudringlari – ko‘z yoshi.
Dillarni ham qizdirar,
Nurli bahor quyoshi.

TONG NAFASI

Yorqin tong nafasi o‘tdi ko‘nglimdan,
Xayol og‘ushida u bilan kezdim.
Mo‘jizalar qancha uchrab yo‘limdan,
Tiriklikning nafis hissini sezdim.

Qarang, sharq tomonidan uyalib chiqar,
Ikki yuzi to‘lib ko‘kda kuladi.
Ezgu nurin sochsa, sovuqni yiqar,
Tunni tong bilan u birga uladi.

KAPALAK

Atlasqanot kapalak,
Nedan darak so‘zlaysan?
Uchib-uchib sen halak,
Qay manzilni ko‘zlaysan?

Gullarni sevishing rost,
Yo‘lingga gul to‘shayin.
Chin dildan qilib ixlos,
Men ham senga o‘xshayin.

DADAJONIM

Yo‘lingizga ko‘z tikdim,
Dardingizni olay deb.
Xudoyimdan so‘radim,
Sizday inson bo‘lay deb.

Bizga mehr ulashib,
Doim kulib qaraysiz.
Mehnat qilib, Vatanning,
Xizmatiga yaraysiz.

Dildagi so‘zim aytay:
Sizni yaxshi ko‘raman.
Sizning pok va sharaflı,
Yo‘lingizdan yuraman.

Dadajonim, siz sabab,
Tiniqdir dil osmonim.
Suyib, meni erkalab,
Quvontiring har onim.

KO'NGIL KECHINMASI

Ko'nglimga qayg'u tushdi,
Yurak yig'lar alamdan.
Halovatim ham uchdi,
Bir so'z chiqmas qalamdan.

Kunlar o'tar mazmunsiz,
Go'yo vaqt o'tmay qolgan.
Tunda yashayman kunsiz,
Dil esa g'amdan tolgan.

DO'STLIK

Do'stlik asli shisha singari,
Sinsa, aslo butlab bo'lmaydi.
Bu dunyoda do'stsiz insonning,
Hayotidan ko'ngli to'lmaydi.

Shunday oliy tuyg'uni doim,
Dil qa'rida asrang, ardoqlang.
Chin do'st tuhfa etsa Xudoyim,
Butun umr ishonchin oqlang.

LAYLAKQOR

Kuzataman kun bo‘yi seni,
Zamin uzra yotibsan abgor.
Anglamaysan – ko‘rmaysan meni,
Holing buncha yomon, laylakqor.

Toptaladi bag‘ring ham nahot,
Ey laylakqor, do‘stim, laylakqor,
Achinaman – qaragan zahot,
Axir sening holing buncha xor.



Dilnoza
Jabborova
10-sinf o‘quvchisi

SO‘ROQ

“Kecha. Sahro. Uyqu va shovqin,
Kecha cho‘kkan uzoq ufqqqa”*.
Orom bilan chulg‘angan tanam,
Ruhim bedor, dardga yo‘liqqan.

Na bir sharaf va na bir shonim,
Abgorlikdan etmaydi xalos.
Subutsiz baxt vayron etarmi,
Kulgular gul ochganda qiyg‘os.

* Hamid Olimjon satrlari.

Yuragimni manqal etgan,
Otash hislar diydamda sizar.
Ko‘zlariningdan olovlangan dil,
Ko‘ngil ishqning taftini sezар.

Sukunatim, isyon qorishgan,
Yemiradi yurak zirhini.
Bahordan rang olib yorishgan,
Tuyg‘ularim o‘ynar betinim.

Yorug‘ sahar. G‘amlar qurshagan,
Saroblari yuvar ko‘zimni.
Ul bevafo tundan so‘rayman,
Tushda baxt qidirgan o‘zimni.

SIRDARYO

Ey, buyuk moziyning silsilalari,
Mehrimni toshirgan sirlar daryosi.
Yuksak g‘ayratimning zilzilalari,
Yorqin shu’la sochgan durlar daryosi.

Oftob boshi uzra parvona ma'vo,
Iliq qalbi bilan nur taratgan xalq.
Har shirin so'zida yoqimli navo,
Cho'lning yuragida bog' yaratgan xalq.

Mehnatkash jonlarga go'shasan o'zing,
Halol rizqin tergan, qo'llari qadoq.
Peshonam silagan onamsan, yoxud,
Otamsan, duogo'y, niyatlar oq.

Ko'nglimni mavjiga asir aylagan,
Ilhom to'lqinlari eltgan manzilim.
Har bir sabosida hayot yangragan,
Husningdan andoza olar bu dilim.

Sirdaryo, ey, momolarim sirlari,
Bobolar mehnati singgan tuprog'im.
Sirdaryo – o'tmishning yolqin nurlari,
Qalbimni yoritgan buyuk mayog'im.

SAMOLAR

Ko'zimga singadi samolar,
Yulduzlar nigohim qa'rida.

Men dalli, dallidir xayollar,
Ko‘nglimiz tashvishlar bag‘rida.

Yomg‘irga bergenman yuragim,
Artsin azobbaxsh izlarni.
Yomg‘ir ham sezarmi dilimda,
Namiqqan zoriqsan hislarni.

Bulutga o‘xshaydi qarog‘im,
Tomchidan gullaydi yanoqlar.
Qalamim, she’r degan yarog‘im,
To‘kilgan durlarim sanoqlar.

Subutsiz ruhimda g‘alayon,
Taslimman, taslimdir sukunat.
Ishqsizlik muborak aylagan,
Bevafo ishqlardan kutib baxt.

Yurakka shivirlab aytilgan,
Dardlarning kuyida yashayman.
Ko‘ngilga zirapcha qadagan,
Sirlarning uyida yashayman.

Sovuqqon ranglarga mengzalgan,
Sovuqqon hislardan sadoman.
Ertamni unutib, baxt to‘la,
O‘tmishni so‘rayman Xudodan.

UMR

Umr oqib borar,
go‘yo suv kabi,
Bir savob qilmadim shuncha yil men ham.
Yashabman qondirib ko‘nglim talabin,
Fursatni behuda o‘tkazib har dam...

Savob ham qilay deb,
so‘ngra kirishdim,
Yaxshilik qilmoqqa intildim chunon.
Imkonim boricha tinmay tirishdim,
Axir tinch qo‘ymasdi ko‘ksimda vijdon.

YANGI O‘ZBEKISTON

Jonimga jon bag‘ishlagan jonajon el,
Menga dunyo kerak emas, dunyoyimsan.
Farzandlarga suyanch bo‘lgan onajon el,
Onam yanglig‘ qalbi qaynoq muloyimsan.

Quyosh nuri bezar gulgun jamolingni,
Bu nur emas, dilbandlaring quvonchidir.
Yonib turgan yuraklarga o‘t qalagan,
Asli buyuk bobolarning ishonchidir.

Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Kubrolarim,
Qodiriylar suygan suyuk Vatandir bu.
Avlodlarning zehni ila parvoz etgan,
Har sohada ilg‘or, buyuk Vatandir bu.

Sanoat-u sport, san’at, adabiyot,
Jahon minbarida yangrar yurt madhi.
Kamoling-chun duodadir butun millat,
Tinchligingdir mening borim, mening baxtim.

Yurtboshimiz qo‘llagaydir bizni har vaqt,
Yangi tongni qarshi olar ona zamin.
Keksa-yu yosh to‘ying ila qutlar bu kun,
Totganicha istiqbolning totli ta’min.

Otashin dil noming bilan bitar bayot,
Ta’zimdamon gulgun, yorug‘ bo‘ston uchun.
Bilim bilan yaratgayman yangi hayot,
Yangi zamin, Yangi O‘zbekiston uchun!..

VATAN

Hissiyot, tuyg‘uga yo‘g‘rilgan hayot,
Tabiatga uyg‘un bu jismim, bu tan.
Umrning yarmi baxt, qolgani sabot,
Ko‘ngil malhamidir muqaddas Vatan.

Vatan nima o‘zi? Vatan ne ma’no?
Yuragim titratgan buyuk harflar,
U bilan yangragan har bir kuy, navo,
Yurtga bo‘lgan sevgim, mehrim ta’riflar.

Onam allalari singgan bu zamin,
Otam mehnatidan yashnagan tuproq.
Quvonchim, shodligim, borlig‘im – bari,
Vatan ishqisi bilan kelajak porloq.

Zehn-u zakovatga chulg‘angan diyor:
Bobolar merosi – ulug‘vor xalqim.
Havaskor yoshlaring ta’zimda ming bor,
Sening quchog‘ingda butundir baxtim.

TASHAKKUR

Qadim Turkistonim, shonli Turonim,
Buxoriyni allalagan belanchak.

Yorqin yulduzlarga to‘liq osmonim,
Sen aziz onamsan, yo gul kelinchak.

Ijod nurlariga bo‘ylarin cho‘zib,
Yangi orzularning yo‘ldoshimiz biz.
Sen shodon kunida chechaklar otgan,
Erka shoiringning izdoshimiz biz.

Bugun yuksaklikka otlangan yoshlari,
Qo‘lda baland tug‘im – mening yo‘lboshim.
G‘alaba, zafarlar tomonga boshlar
Bizga ishonch bilan aziz Yurtboshim.

Duoga qo‘l ochgan nuroni y xalqning,
Kulgi-shodligidan yayraydi zamin.
Ishonchin oqlaymiz bu oliy baxtni
Baxshida aylagan sofdir odamning.

Nega g‘ururlanmay saxiy Vatanim,
Qorako‘zlariga bergen imkondan.

Minnatdormiz bugun yosh avlodlarga
Tirgak bo‘lib turgan nurli insondan.

Ilm sirlaridan izlayman baxtim,
Yurtimni madh etib bitgayman alyor.
Tarix sahnasida yaratay taxtim,
Davlatim rahbari menga madadkor.

Ezgu himmatidan yorishar ko‘nglim,
Bugun ko‘ksim to‘la faxr va g‘urur.
Iliq mehringiz-la nurafshon yo‘lim,
Prezidentim, sizga ming bor tashakkur!

TAZARRU

Kabutar osmonda uchsa ulug‘ kun,
To‘tilar neligin bilmasa tutqun,
Bo‘zto‘rg‘ay bo‘zlamay chehrasi gulgun,
El istagi – bu.

Unsa hovlimizda tarix daraxtim,
Ilm-u urfon bilan ochilsa baxtim,
Jahon saroyida taxlansa taxtim,
Maqsadlarim – shu.

Majnuntoldek hayo, terakdek g‘urur,
Ko‘ngil oynasining in’ikosi surur,
Tinchlik quyoshida toblangim kelur,
Tanimay qayg‘u.

Obod qishloq ichra oboddir ko‘nglim,
Yurtim ertasidan yurak limmo-lim,
Ma’rifat qo‘zg‘olsa, jaholat ham jim,
Ushaldi orzu.

Odobsizdan odobni o‘rganib oldim,
Yaxshiga yondashib, yomondan tondim,
Yozgan she’rlarimni kuyga ham soldim,
To‘fondir tuyg‘u.

Qo‘li qon bo‘lganga biz tutdik Qur’on,
Musaffo havodan yaltirar osmon,
Davr-u davron bizniki, bizniki imkon,
Bong urar kulgi.

Saodat maskani – hur O‘zbekiston,
Nafosat maskani – gul O‘zbekiston,
Ibodat maskani – bul O‘zbekiston,
Senga tazarru!

ISTIQLOL BAYROG‘I

Dilda sabza urgan mehr giyohim,
Ko‘klarga bo‘y cho‘zgan g‘ururim – Vatan.
Sensan sajdagohim, o‘zing panohim,
Baxtim-u kamolim, sururim – Vatan.

Boshida nur sochar, erk nurlarini,
Iftixor bayrog‘i ulashib quvonch.
Ustunin bezagan yuksak orzular,
Yuksak odimlar-u mustahkam ishonch.

Najmiddin Kubroning qo‘lida yongan,
Adolat mash’ali asli o‘zingsan.
Dunyo sahnasida hilpirab mag‘rur,
Istiqlol tamali asli o‘zingsan.

Osmon-u falakka yetgay bu boshim,
Mustaqillik tug‘i ko‘kka yetsa gar.
Aziz ona yurtim, qaldirg‘ochlaring,
El boshin ko‘klarga, albat, yetkazar.

HAYOT QO‘SHIG‘I

Bu kunlar g‘animat, yashaylik kulib,
Besh kunlik dunyoda g‘amga ne hojat.
Sinovlar uchraydi, lek birga bo‘lib,
“Kuch birlikda”, – derlar, yengamiz, albat.

Kerak emas boylik, hashamat, shuhrat,
Biz uchun keragi, avvalo, sog‘lik.
Zafar quchgan do‘stga qilmangiz hasad,
Siz ham g‘olibdirlisiz, bo‘lsa omonlik.

Bu hayot charog‘bon, go‘zal, lek uni
Inson yuragidan anglamoq kerak.
G‘aflat yo‘lagidan yurmay, har kuni
Xursand bo‘lmoqlidir yagona tilak.

KO‘NGIL SURURI

Ko‘ngil darvozasin bezab gullarga,
Kamalak jilosin naqshini o‘ydim.
Fursatni boy bermay ayyor yillarga,
Yuksak maqsadlarga bir narvon qo‘ydim.

Soyning ovoziga bastaladim kuy,
Davralarda xirom etar maysalar.
Hayotning isini his qildim xushbo‘y,
Qani, gullar menga sirin aytsalar!

Oymomo, kel menga bo‘lgil dugona,
Yulduzlarining bo‘lsin menga jon singil.
Qalb so‘zlarim aylay senga havola,
Dunyoga aylansin bu jajji ko‘ngil!

DILQOTIL

Zulmatning uyida mehmonman yana,
Qalbim yarasiga izlayman davo.
Parishon ruhimga topolmam pana,
Bag‘rini ayaydi mendan keng ma’vo.

Quvonchli kunlarim ketganlar uchib,
Baxtlar qoldirmaydi o‘zlaridan iz.
Dardli she’rlarimni yig‘layman quchib,
Qiynaydi dilimni dilqotil bir his.

Yurakka tig‘ sanchdi makkora tuyg‘u,
Ko‘nglimda hukmron xazonlar fasli.

Xayolot olamim zabit etgan qayg‘u,
Muhabbat baxt emas, dard ekan asli.

Toshqin tuyg‘ularim qilganlar qazo,
Endi bitta chora – baxt tongin kutish.
Qay gunohim uchun bo‘lmoqda jazo,
Seni unutolmay o‘zni unutish.

TASALLI

Siqilmayman, sira bo‘lmayman xafa,
Dunyo tashvishlari o‘tib ketadi.
Bir kun fursat kelar va o‘sha mahal,
Mening paravozim baxtga eltadi.

Bugun suvgaga aytsam g‘am-alamimni,
Bir kun shu suvlarda baxtdan suzaman.
Va o‘sha kun qo‘lga olib qalamni,
Qayg‘u emas, quvonchimni yozaman.

Mayli, bugun tomchilasa ko‘z yoshim,
Bir kun ular sevinchimdan porlaydi.
Ishonaman, mag‘rur tutgancha boshim,
Qalbimda hech abgor hislar qolmaydi.



**Shahzoda
Ahmedova**
10-sinf o‘quvchisi

VIJDON

Senga rahmim kelib ketdi, birdan, goho,
Sadoqatsiz kimsalar-ku seni sotib ketgan.
O‘rtanmagin, sen bo‘lasan inson qalbining,
Balchig‘iga cho‘kib-cho‘kib, botib ketgan.

Sotilyapsan insofsizlar bozorlarida,
Achinaman, diydalari ko‘p qotib ketgan.
O‘ylamayin foni y dunyo ozorlarida,
Odamszod-ku iymonini yo‘qotib ketgan.

O‘sha mehr, o‘sha tuyg‘u, o‘sha ko‘zlar,
Bir zamonlar tarixlarda qolib ketgan.

Qani o'sha dildan chiqqan ro'yo so'zlar,
Vijdonlilar o'zi bilan olib ketgan.

QIZINGIZDAN

Ona, shamol esganida, sizning xushbo'y
bo'yingizga,

Qancha tonglar otganida, issiq yopgan
noningizga.

Teng kelolmas dunyolar ham "qizim" degan
so'zingizga,

Alishmasman siym-u zarni hatto tola
sochingizga.

Kuni kecha qizaloqday qo'lingizni tutib
yurgan,

Quloqlarim sizdan qancha ertak kutib yurgan.

Siz kulsangiz, xokisordek sizga qarab kulib
turgan,

Qarang, hozir shu qizingiz qalbiga ko'p
g'amlar kirgan.

Bu qalbga gul ekilgan, qora tuproq to‘lgan
guldon,
Ko‘rinadi ko‘zlarimga qora bulut to‘lgan
osmon.
Eh, insonlar qilmishidan qurib qolar hatto
ummon,
Shuncha yolg‘onlardan ham mening qalbim
qoldi omon.

Qushday yengil bo‘ladirman, bag‘ringizga
boshim qo‘ysam,
Ko‘zlarizingizga qarab, yolg‘ondanmas,
chindan kulsam.
Sizning issiq taftingizdan, mayli, olovdayin
kuysam,
Satrlarim bag‘ishlayman agar sizga, omon
bo‘lsam.





**Farangiz
Yigitaliyeva
10-sinf o‘quvchisi**

QALB NOLAM

Ichimdan olovdek kezar g‘alayon,
Behalovat tunlar azoblar tanim.
Oh, bu azob meni qo‘ymaydi omon,
Isyonkor hislarim o‘zimga g‘anim.

Izlayman osmondan najotim – Oyim,
Nurafshon yuzidan kutarman sado.
Negadir qorong‘i ko‘ngil saroyim,
Bo‘g‘zimdan otilib chiqadi nido.

Goho ko‘milaman dardlar qa’riga,
Gohida telbadek yayrab kulaman.
O‘zimni otaman baxtning bag‘riga,
Ko‘ksimdan g‘amlarni bir-bir yulaman.

Sevinchdan g‘arib qalb qiladi parvoz,
Musaffo samoda yonar quyoshim!
Nurlaringdan sira kechmagayman voz,
Aslo oqizmagin tomchi ko‘z yoshim.

Ey, mening ilhomim, cheksiz ummonim,
Quyosh-u Oy aksi senda bo‘lgan jam.
Quchog‘ida qanot qoqqan osmonim,
Quvonchim sen bilan ko‘raman baham.

Talpinaman senga, dardkashim o‘zing,
Yulduzlar yoningda bo‘lmay parvona.
Yuragim qulfiga kalit bir so‘zing,
Qalb nolam samoda kezar devona.



Xanifa
Abdushoshimova
10-sinf o‘quvchisi

SHAMOLLAR

Shamollar ham tindi ohista,
Yurak jimjit urmay turardi.
Hatto senga bo‘lgan sevgimni,
Majnun ko‘rib havas qilardi.

Shu qadarki, senga bu yurak,
Oshuftadir, hang-u mang yoki.
Sen bordirsan qalbimda mangu,
Muhabbating ko‘nglimda hokim.

Gar men oshiq va yoki sarson,
Visolingni kutmayman qistab.
Bir kunim ham senga yetmaydi,
Gar seni men sevsam-da istab.

Ya habiblar, habibi Egam,
Sen hammadan barkamol zotsan.
Seni sevmay ozor chekkanga,
Xuddi, Humo qushidek yotsan.





Nozima
Qosimova
10-sinf o‘quvchisi

MUSTAQIL YURT O‘ZBEKISTON

Saodat osmonida sen menga yo‘ldosh,
Yurtim – yuragimda porlagan quyosh,
Shodligimga shohid, g‘amimga sirdosh,
Mustaqil yurt – O‘zbekiston, O‘zbekiston.

Tunlar alla aytib uxlatgan onam,
Onam kabi aziz – yakka-yagonam,
Mehring quchog‘ida baxtliman har dam,
Mustaqil yurt – O‘zbekiston, O‘zbekiston.

Bobomsan – qo‘lingga bo‘layin tirkak,
Shonli tarixingdan ruhim ham sergak.

Gullagan bog‘ingda men ham bir chechak,
Mustaqil yurt – O‘zbekiston, O‘zbekiston.

Ravon bo‘lsin hamisha go‘zal yo‘llaring,
Gullarga to‘lsin bag‘ring, o‘ng-u so‘llaring.
Olg‘a odimlayman tutib qo‘llaring,
Mustaqil yurt – O‘zbekiston, O‘zbekiston.





Hilola
Safarova
10-sinf o‘quvchisi

KO‘KLAM KECHINMALARI

Iforga burkandi dilning olami,
Quvonchlar keltirdi qalbimga bahor.
Ko‘zimdan aritdi sog‘inch jolamni,
Mening tuyg‘ularim aylab baxtiyor.
Daraxtlar kurtagin yozar shodlanib,
Gullar ham ko‘ngilni to‘ldirar zavqqa.
Ko‘z ochgan maysalar shu’lani tanib,
Adirlarda yotar belanib shavqqa.
Hatto taftin tuyar ko‘kdagi qushlar,
Parvozi, ovozi baxsh etar huzur.
Boychechak gullari dilimni xushlab,
Olamni tutadi farahbaxsh surur.



**Dilnura
Eshmuhamedova**
10-sinf o‘quvchisi

DIL SO‘ZLARI

Viqorlidir tog‘lari,
Shundan biyron so‘zlarim.
Yashnab turgan bog‘lari,
Quvnatadi ko‘zlarim.
O‘lkamni quyosh nuri,
Ming bor shukur – yoritar.
Vatanim – ko‘nglim duri,
Mehri bizni bor etar.
O‘zanidan dilso‘zim,
Daryodek borsin toshib.
Shu vatanning nufuzi,
Doimo borsin oshib.



**Subhidam
Abdushamidova**
10-sinf o‘quvchisi

SINOV

(Hikoya)

...Avval hushtak ovozini eshitdi, keyin o‘zi tarafga qizil tayog‘ini o‘qtalgancha yugurayotgan YPX xodimiga ko‘zi tushdi. “Ufff”, – dedi u rulni kafti bilan asabiy urarkan. “Axir hech kim yo‘q edi-ku, endi aniq ishga kech qolaman”.

– Kapitan Ulug‘bekov, – chest bergancha dedi o‘rta yoshli, qorachadan kelgan va formasi o‘ziga xiyla torroq xodim. – Iltimos, hujjatlariningizni ko‘rsating.

U yana o'sha asabiy holatda mashina tortmasidan hujjatlarni olib ko'rsatarkan, qancha puli borligini xayolida chamlab oldi.

– Qizil chiroqda o'tib ketdingiz. Menimcha, bu birinchisi emas – dedi kapitan hujjatlarni qaytarib berarkan quv ko'zlar bilan.

– Kamandir, – dedi u yig'lagandan battar holatda kularkan. – Bir safar kechirsa bo'lar...

– O'tgan safar ogohlantirgandim sizni, – dedi Ulug'bekov. – Jarima yozaman, boshqa iloji yo'q. Menga gap tegadi.

– Men o'tayotgan payti zebrada hech kim yo'q edi, – o'zini oqlashga tushdi. – O'lib ketay agar, hech kim yo'q edi. Ishga kech qolmay deb, o'tib ketgandim.

– Uzr, uka. Yozmasam, bo'lmaydi. Tushuning men ham ishdagi odamman. So'z bilan hal bo'lmasligini tushungan haydovchi mashinadan tushdi va cho'ntagidagi bor pulini (biroz achinish bilan) xodimning cho'ntagiga soldi.

– Aka, bir safar yozmay tursangiz, rozi qilardik, – dedi qo'lini ko'ksida qovushtirgancha tirjayarkan.

– Yo‘q, yo‘q, unaqa qilmang. Ishdag'i odam-man, uka, – cho‘ntagini kovlay boshladi xodim.

– Ob qo‘yavering, akajonim. Bilamiz, siz-largayam osonmas. Issiqni issiq, sovuqni sovuq demay turasizlar.

Xodim noiloj ruchka va qog‘ozni ich cho‘ntagiga soldi. Haydovchi esa yana qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygancha u bilan quyuq xayrlashdi. Ishlariga omad tiladi.

...Mashina tezlik bilan ko‘zdan tobora uzoqroqqa ketarkan, Ulug‘bekovning ichini it tirnardi. “Esiz, bekor oldim-da. Axir halol ishlayman deb, qasam ichgandim... Lekin... Oylik tushishiqa yana bir hafta bor, uyda yog‘, un yo‘q. Qizimning kontrakti turibdi hali. Kreditimiz ham bor. Amal-taqal qilib, shu haf-tani o‘tkazvolsak... Oylik oshadi degan gaplar yuribdi. Oshirishmasayam, mayli. Non qim-matlashib ketadi...” Patrul xodimi shu o‘ylar bilan piyodalar yo‘lagi bo‘ylab yura boshladi. “Hozir buni olmasam, uydagilar och qolardi. Xudoyim, bandangni o‘zing kechir...”

Mashinadagi odam idora eshididan kirishi bilan kotiba so‘z qotdi:

- Ish so‘rab kelishibdi, Tohir Akmalovich.
- O‘zingiz bilasiz-ku, bo‘sh ish o‘rni yo‘qligini, – baqirdi u.

Kotiba unga yaqinroq kelib qulog‘iga bir nimalarni shipshidi. U esa boshini asabiy chayqab, xonasiga kirib ketdi. Birozdan keyin xonaga yoshi yigirma-yigirma uchlar atrofidagi yigit qo‘lida hujjat bilan kirib keldi. U bilan qo‘shqo‘llab ko‘risharkan dedi:

- Bo‘limingizda bo‘sh o‘rin bor ekan. Ma’lumotim oliy. Agar ishga olsangiz, jon-jahdim bilan...

– Siz yanglish eshitgan ko‘rinasiz, uka, – dedi u iloji boricha muloyimlik bilan. – Bizda o‘rinalar to‘la. Kechirasiz. Bo‘shab qolsa sizga, albatta, xabar beramiz.

- Uzr, – yigit nim tabassum bilan stol ustiga oq konvert qo‘yarkan. – Akajonim, qiyin payti turib beradiganlardanmiz. Ishga olsangiz, afsuslanmaysiz...

Yigit hamon jilmayib turar, u esa o‘g‘lining kontrakt to‘lovi, bir dunyo to‘lanmagan kreditlari va yaqinda qizini uzatishi kerak ekanligini o‘ylardi...

SO‘QIRLAR

(*Hikoya*)

Oktabrning yomg‘irli kuni... Yomg‘ir xuddi odamlarning asabida qasdi bordek yurakni ezib, astalik bilan yog‘ardi. Men esa bu sof havodan xuddi bangi oadamdek yutoqib-yutoqib nafas olar, tanam sovuqda dir-dir tit-rayotgan bo‘lsa-da, ruhim yomg‘ir bilan qorishib, orom olardi. Svetoforga yaqinlashib qolganimni sezdim. Yomg‘irga yuzimni tutib turgan paytimda kimdir:

— Yashil yondi, shekilli, — dedi.

Bu ayol kishining tovushi edi.

— Shundaymi? — dedim ishonqiramay.

Miq etgan tovush chiqmadi. Shunda xijolat bo‘lib, qora ko‘zoynagimni to‘g‘riladim va maxsus hassachamni yerga urib qo‘yarkanman, so‘z qotdim:

— Kechirasiz, mening ko‘zlarim. Haligi...

— Nima qipti ko‘zlarингизга? — so‘radi boyagi ovoz sohibasi.

— Ular ko‘rmaydi...

Shundoqqina yonimdan qandaydir ingragan ovoz eshitildi. Menga kimningdir rahmi kelib yig‘lashi mutlaqo yoqmasdi.

– Kechirasiz, – dedi ayol negadir.

– Nimaga uzr so‘rayapsiz?

– Men bilmabman, – uning ovozi titrab chiqdi. Qiziq, u birinchi marta ko‘rlarga duch kelganmikan-a? Indamay keta boshladim.

– Agar mumkin bo‘lsa...

U menga iltifot ko‘rsatishini ham, yo‘ldan o‘tkazib qo‘yishini ham istamasdim. Mendagi g‘urur qandaydir notanish qizning oldida o‘zimni ojiz his qilishimga aslo yo‘l bermasdi. Shuning uchun uning gapini cho‘rt kesdim:

– Yo‘q mumkin emas! Yo‘ldan o‘zim o‘ta olaman.

– Men buni so‘ramoqchi emasdim, – dedi u. – Bu qanday sodir bo‘lganini aytib berolasizmi?

– Nima? Ko‘rlikmi?

Bolaligidagi bu odad hanuz meni tark etmagan – jahlim juda tez chiqardi.

U indamagach, ovozimni ko‘tarib, xuddi bu oxirgi gapim degandek:

– O'n uch yoshimda avtohalokatga uchraganman. O'n yildan beri ko'rayotgan narsam – zulmat. Lekin bundan xafa emasman.

– Qanaqasiga? – yana savol berdi u.

Bunchalik ezma insonni endi ko'rishim edi. Bu safar kar odamga tushuntirayotgandek baqirib gapirdim:

– Chunki shunday bo'lishi kerak edi va bo'ldi. Taqdirdan noliganim bilan tuzalib qolmayman-ku! Va men hech qachon o'zimni ko'r hisoblamaganman. Aksincha, ko'r bo'lgach ko'zlarim ochildi.

Uzoq vaqt o'tsa ham hech kim javob qaytarmagach, u ketib qolgan bo'lsa kerak degan xayolda men ham asta yura boshladim. Ortimdan qadam tovushi kelgach, u hamon men bilanligini, ehtimol, aytgan gaplarimni mulohaza qilayotganini taxmin qildim.

– Gadgetlar haqida yana nima deya olasiz? – yana savol berdi u.

Bu savol kulgimni qistatdi.

– Telefon haqidami? – o'ylangancha so'radim. – Men uchun u afsundan boshqa narsa emas.

Men ko‘rgan paytim u hali ommalashmagan edi. Hozir hammani jodulab qo‘ygan.

– Axir u foydali buyum, – e’tiroz bildirdi u.

Hassacham bilan yerni paypaslab yurarkanman, nimagadir shaxsiy mulohazalarimni eshitadigan inson topilganidan xursand bo‘ldim.

– Xo‘sish, nimasi foydali ekan? Masofalarni qisqartiradi, demoqchisiz, shundaymi? Qarang, men hozir sizni ko‘rmayapman. Ovozingizni eshityapman, xolos. Lekin hozir sizni ko‘rishni va gaplarim qanday ta’sir qilganini yuz ifodangizda sezishni xohlardim. Telefon ham shunday.

– Uzr, men borishim kerak, – dedim yana ko‘zoynagimni to‘g‘rilab.

– Mumkin bo‘lsa, aytolmaysizmi?

– Yo‘q, mumkin emas. Kutubxonaga ketayapman. U yerda esa “abonent javob berolmaydi”, – dedim asabiy.

– Ha, mayli.

Ovozidan xafa bo‘lgani sezilib turardi.

– Lekin keyinroq qo‘ng‘iroq qilishingiz mumkin.

Javobini kutmasdan tez-tez odimlab keta boshladim. Nimagadir ruhimda avvalgidan ko‘p-

roq yengillik sezdim. Axiri meni eshitadigan (balki tushunmasa ham baribir eshitadigan) insonni topdim. Uyga kelib ko‘rlar uchun maxsus ishlab chiqilgan kitoblar ichidan eng sevimli kitobimni o‘qir ekanman, o‘zimda qandaydir xushhollik tuydim. Yillar davomida anglab yetgan mulohazalarimni kim bilandir bo‘lishish menga bir olam zavq berdi.

* * *

...Yana yomg‘ir, yana svetofor.

Mashina shovqini tingach, o‘scha tanish ovoz eshitildi:

– Yashil chiroq.

– Ko‘rganimdan, yo‘g‘-e, eshitganimdan xur-sandman, – dedim men fransuzlarga taqlidan shlyapamni ko‘tarib qo‘yarkanman.

– Men ham...

Yo‘ldan o‘tarkanmiz, gap boshladi:

– Bugun yangi mavzu bo‘yicha fikrlaringizni eshitmoqchiman. Kitoblar haqida. Kecha kutub-xonaga boraman, degandingiz. Lekin...

– Audiokitob eshitaman, – dedim qisqa qilib. – Siz ko‘p o‘qiysizmi?

U xo‘rsindi:

— Deyarli o‘qimayman.

— Ahmoq ekansiz, — gapim qo‘pol chiqqan bo‘lsa-da, zarra afsuslanmadim.

— Avval ko‘p o‘qirdim. Juda ko‘p. Hozir...

— Agar ko‘zlarim ko‘rganda har kuni hatto uxlamasdan o‘qirdim. Kitoblar qanaqangi koinot ekanini bilmaysiz, shekilli. Ehhh, siz ham o‘sha milliardlab ahmoqlarning biri ekanligingizni bilmabman.

— Aslida... — u yig‘lab yuborishga shay odamdek titroq tovushda gapira boshladi. — Aslida... yo‘q, u gapirolmadi, birdan yig‘lab yubordi.

Umrimda birinchi bor bunaqangi ta’sirchan odamni ko‘rishim. Keyin ahmoq deganim uchun uzr so‘radim.

— Hech Dostayevskiyga ko‘zingiz tushgan mi? — dedim uni chalg‘itish uchun.

— O‘qiganman, — dedi hiqillab.

— Ko‘rinib, e, uzr, sezilib turibdi.

— Siz ta’sirchanligimni aytyapsizmi? Birdan jonlandi u.

– Aynan shuni, – dedim.

– Buning sababi... – birdan jimb qoldi.

Keyin esa mendan lirika haqidagi fikrlarimni so‘ray boshladi. Shunda men mashhur shoirlarning gapini aytib qo‘ya qoldim:

“She’riyat bu – qoni har qanday insonga tushadigan donor”.

Uni hassacham bilan aniqlab olgan namchil o‘rindiqqa o‘tirishga taklif qildim.

Shundan keyin bolaligimdan she’r jinnisi bo‘lganimni, Yeseninning “Go‘daklikdan ma’lum har odam...” deb boshlanuvchi she’ri orqali lirikaga qiziqib qolganimni va ko‘rlarga mo‘ljallangan telefon apparatimda jahon lirkasidagi eng sara she’rlarining audiolari saqlanishini aytdim. Ko‘rmasam ham u meni jon qulog‘i bilan eshitayotganini his qillardim. Shunday bo‘lsa-da:

– Juda zerikib ketgandirsiz? – deb qo‘ydim.

– Yo‘q, aksincha, – dedi u shoshib. – Men maktabda adabiyotdan dars berardim. Lekin...

– Sizni eshitadigan hech kim yo‘q edi... Buni o‘z hayotimdan kelib chiqib aytdim. U esa sekin “aynan shunday”, dedi.

Men esa negadir biroz sovuq yegan qo‘l-larimni bir-birga ishqalab, ichimdagi qora tutunlarning chiqib ketishida og‘zim mo‘ri vazifasini o‘tayotganini bilgandek tinmay gapirardim:

— Xafa bo‘lmang, ko‘pincha daholar yolg‘iz bo‘ladi.

Kuldi.

Shu ko‘yi uzoq o‘tirdik, savollarni ko‘pincha u berardi. Ertasiga yana o‘sha svetofor oldida ko‘rishishga kelishdik. Audioshe’r tinglar ekanman, hatto isminiyam so‘ramaganim esimga tushib qoldi. Keyin esa bu umuman ahamiyatsiz, deb o‘yladim.

O‘nyillar davomida o‘rgangan narsalarimning yana biri – omma orasida birovning yordamisiz yura olardim. Fanda insonning bir a’zosi yaxshi ishlamasa, boshqa birining ishlashi kuchayadi, deyilgan. Menda tana sezgisi va yana multfilmlarda aytilgan “6-tuyg‘u”ning ishlashi kuchaygandi. Shu yo‘sin men uning ovozidan o‘zim tengi ekanligi va tabiatida ta’sirchanlikdan tashqari haddan ortiq bosiqlik borligini ham sezdim. Xayollarim chegara bilmasdi. Shu payt

tushunmay, xayollar sabab anglay olmay, qolgan she’rimning oxirini anglab qoldim-u “voh” deb yubordim:

“...Kuzgi Toshkent qabristonday gap,
Sassiz kezib yurar murdalar”.

Ertalab buni qarangki, yana yomg‘ir edi. Bu tabiiy, oktabr oxirlab qolgan. Xayolimda yana o’sha she’r... “...sassiz kezib yurar murdalar”.

– Hoy, qahva istaysizmi? – degan ovoz eshitildi uzoqdan.

Beixtiyor o’sha tarafga qarab yurdim.

– Bu havoda yaxshi ketadi, – dedi ovozidan juda yosh tuyulgan sotuvchi.

– Shunday, – dedim paltomning o‘ng cho‘ntagiga taxlangan puldan unga uzatarkanman.

– Sizni har kuni ko‘raman, – dedi u qaytimni berib. – Nafaqat yomg‘irdan, balki hayotdan ham zavqlanadiganga o‘xshaysiz. Bu yerdan o‘tadigan insonlarning juda ko‘pi loqayd, atrofga umuman qaramaydi, fikr-u xayoli telefonlarida. Yomg‘ir, yerdagi barglar, havo...

– Dunyoqarashimiz o‘xshash ekan, marhamatli janob. Ajoyib fikrlar va qahva uchun rahmat.

Bunaqangi muomala kimlar uchundir hazil bo‘lib tuyulsa-da, men haqiqatan ham gapirish va kiyinishda fransuzlarga taqlid qillardim. Yana bir suhbatdosh topilganidan xursand bo‘ldim, endi har kuni qahvani shu yerdan sotib olish va bu yigitcha bilan suhbatlashishni ko‘nglimga tugib keta boshladim.

– Yashil yondi, shekilli...

Beixtiyor jilmaydim.

– Xursandman, – dedim-u jim qoldim.

– Menimcha, Raskolnikovning o‘ziman, – dedi u quvnoq ovozda.

– Axiyri tushundingiz, – deya kuldim men. – Ta’sirchanlik faqat insonlarga xos. Kampirni chopib tashlab bir tuki qilt etmasa, uning robotdan nima farqi qoladi?

– Lekin bu menda haddan ortiq.

– Sizdan shoir chiqishi mumkin. Hatto o‘lgan chumoliga ham yig‘laydigan inson aniq shoir bo‘ladi, deb eshitganman, – dedim yana kularkanman.

Unga qahva sotuvchisi bilan bo‘lgan qisqa suhbatni aytib berdim.

Yo'llar ham, suhbatlarimiz ham tugamas, ruhim yanada yengil tortardi. Shunda xayolimga tez-tez Rumiy va Shams Tabriziy kelar, men ularning bir xonada haftalab suhbatlashib o'tirishganining sababini anglardim.

O'sha kun ham har kungidek oddiy edi. Qahva oldim va endi rahmat demoqchi edim, birdan o'sha qizning ovozi keldi:

– Menga sutli qahva bering, iltimos.

Meni payqamadi, shekilli, men ham indamadim.

– Voy... – u birdan dodlab yubordi.

– Uzr, xonim. Bilmabman kechirasiz.

Qahva qo'liga to'kilgan bo'lsa kerak degan taxmin bilan endi gapirmoqchi edim, nimagadir o'sha men bilgan qadrdon qahvachi:

– Xonim, agar ruxsat bersangiz, uyingizga kuzatib qo'yaman, – dedi.

Jahlim chiqdi. Yo'talib qo'ydim va keskin:

– U o'zi keta oladi! – dedim.

Sukunatni qahvachining sekin hamda achinish to'la ovozi buzdi:

– Kechirasiz, u ham siz kabi ekan.

Xuddi chaqmoq chaqqandek bo‘ldi. “Siz kabi ekan”, “Sizdek ekan”. Nima degani bu?! U ham ko‘rmi? Nahotki? Xayolimdan uning yig‘lagani o‘tdi. “Avval o‘qirdim, hozir deyarli o‘qimayman”. “Aslida...”. “Yashil yondi, shekilli” “Shekilli”... Ha, biror narsani aniq bilmagan odam shunday deydi.

— Kechirasiz... — dedi u. Boshida aytishim kerak edi.

U ovozimdan allaqachon men ekanligimni bilib olgan, albatta. Keyin sekin qo‘shib qo‘ydi:

— Mening ko‘zlarimni ochdingiz.

Men esa shu zahoti o‘zimni qo‘lga oldim va xuddi hech nima bo‘limgandek kulgancha dedim:

“Bir chekkaga qo‘yib dunyoni,
Yomg‘irni tingla”.

Keyin she’riyatdan gap boshladim. Bu safar biz uch kishi edik. Oxirida qahvachi kulgancha shunday dedi:

— Ko‘zlarining ko‘rmasa-da, sayyoradagi kamsonli ko‘zi ochiqlardansiz.

TELBA SAYYORA

...Tabiatimda melanxolik tipi hukmron bo‘lgani uchun yolg‘iz qolish, xayol surish va kitob o‘qish hayotimning asosiy qismini tashkil qilardi. Hatto juda arzon bo‘lsa-da, jamoat transportidan ham foydalanishni yoqtirmasdim. Too‘sha voqeasodir bo‘lma guncha... Keyinchalik hatto eng yaqin manzillarga ham avtobusda boradigan bo‘lib qoldim. Avtobusga chiqqach, allaqanday xira umid bilan yo‘lovchilarga ko‘z tashlar, asosan, eng orqa oyna oldidagi o‘rindiqda kim o‘tirgani meni qiziqtirardi. Menimcha, hikoyani boshidan boshlaganim yaxshiroq, axir peyzajni uni bo‘yashdan boshlashmaydi-ku!

O‘sha kuni agar ob-havo yaxshi bo‘lganda men aslo chirkin realizm domiga tushib qolmagan, hamon osmonlarda uchib yuradigan xayolparastligimcha qolgan bo‘lardim. Hammasi o‘sha tumanli hamda yomg‘ir aralash yog‘gan qor natijasida sodir bo‘ldi. Yupun kiyinganim, soat kechki yettidan oshib ketgani meni uyga piyoda ketish qaroridan qaytardi. Muzlab qolgan qo‘llarimni bir-biriga ishqalagancha kuhkuhlab

isitar ekanman, shundoqqina yonimda nolali ingragandek ovoz chiqarib, beliga qadar loyga belangan eski avtobus to‘xtadi. O‘ylab o‘tirmay o‘zimni avtobusga urdim. Avtobus ichi iliq, unda isitish uchun hech qanday qurilma bo‘lmasa ham, insonlar tafti bilan shu holatga kelgandi. Muzdek tutqichni ushlagancha bo‘sht o‘rindiq qidirdim va shundoqqina ortimdagagi uchta o‘rindiqning ikkitasi bo‘sht ekanligini ko‘rdim. Bittasida, oynaning yonidagisida, yigirma besh-o‘ttiz yoshlari atrofidagi italyanlarga o‘xshab ketadigan inson jiddiy qiyofada qo‘lidagi qog‘ozga termilib o‘tirardi. O‘sha o‘rindiqlarning biriga cho‘kdim. Avtobus beshikdek tebranarkan, men uxlab qolmaslik uchun yo‘lovchilarni birma-bir diqqat bilan kuzata boshladim. Ularda mening e’tiborimni tortadigan hech narsa yo‘q edi. (Sababi oddiy: modaga qiziqmayman.) Nigohim oxirgi bo‘lib yonimda o‘tirgan jiddiy qiyofadagi insonga tushdi. Shundagina u rassom ekanligi va tikilib o‘tirgan narsasi oddiy qog‘oz emas, kichik hajmdagi rassomlar molberti ekanini idrok etdim. Beixtiyor qiziqsinib, butun gavdam bilan

o'sha tomonga o'girilib oldim. Uning qo'lidagi qog'oz chizgilar bilan to'lib borar, u esa to'g'riga nigohini uzoq tikib qolar, so'ng yana molbertga tikilib, qo'llarini qog'oz ustida chaqqon va nozik harakatlantirardi. Tikilib qolganimni sezgach, u biroz xijolat bo'ldi, aslida esa men uyalishim kerak edi. Ikkimizni ham bu noqulay holatdan qutqarish uchun molbertga ishora qilib:

– Ko'rsam, maylimi? – deb so'radim.

Molbertini menga uzatyotganda qorachiqlarida aks etgan iztirob meni qo'rqiidi. Qog'ozda shunchaki odam soyasi tasvirlangandi: shlyapa va uzun plash kiygan, detektiv asarlardagi sirli qotilga biroz o'xshab ketadi. Shularni mulohaza qilarkanman, bular oddiy havaskor rassomga tegishli oddiy mashqlar emasligini, har bir chizgi o'z o'mida, mukammal qilib chizilganligiga amin bo'ldim. Uzoq tikilib qolganimni savol alomati deb tushundi, shekilli, izoh berdi:

– Birinchi o'rindiqda o'tirgan shlyapali qari insonni ko'ryapsanmi?

Bosh silkidim.

– O'shani chizganman, – dedi u sekin. Keyin u yonida turgan va, asosan, talabalar orasida urf

bo‘lgan qora charm portfeldan bir dasta qog‘oz olib ko‘rsatdi. Chamasi, u ijodiga qiziqib qolgan insonni qo‘ldan chiqargisi kelmasdi.

—Yoshing nechada? — dedi u qog‘ozlarni saralar ekan.

— O‘n yettida, — dedim sekin. Uning qo‘lidagi qog‘ozlar meni ohanrabodek o‘ziga tortardi.

— Ismim Temur. Men Darvindan farqli o‘laroq “Men chiziyapmanmi, demak, yashayapman” qabilida kun kechiraman. Bu hech qanday kibr emas, lekin men buyurtma uchun surat chizadigan xashaki rassomlardan emasman. Edvard Munk-dek modernizmda chizish menga umuman yoqmaydi. Shunchaki odamlarni chizaman, ularning qiyofalarini chizaverganimdan ko‘chada uchratgan istalgan odamning yuziga qarab qanday odamligini aytib bera olaman.

U menga xuddi muxlisidek muomala qilishi g‘ashimga tega boshladи. Lekin rostini aytganda, gaplari qiziqarli edi.

— Unda bu shlyapali odamning nega yuzi yo‘q? — dedim boyagi rasmga ishora qilib.

U xuddi shu savolni kutib turgan, shekilli, chehrasi ochilib ketdi:

– Uning yuzi yo‘q...

U menga sinovchan tikildi va davom etdi:

– U, ehtimol, yoshligida qandaydir muhim lavozimda ishlagan. Odam o‘ldirish, urushlar kabi istalgan vahshiyliklarni ko‘raverib ko‘zi pishib ketgan. Shuning uchun uni shunday tasvirladim: sovuqqon va hissiz.

– Buni qayerdan bilasiz? U tanishingizmi?

Istehzoli jilmaydi:

– Konan Doyl va Agata xolani o‘qimaganing ko‘rinib turibdi.

Negadir jahlim chiqqa boshladi va maqtangannamo dedim:

– Puaroning hamma tomlarini o‘qib chiqqanman.

U menga obdan ko‘z yogurtirdi:

– Demak, melanxoliksan! Xayoling bir yerda turmaydi.

Esankirab qoldim. Odam qanday qilib shunchalik ziyrak bo‘ladi?!

– Gap shundaki, – dedi u ovozini pasaytirib, – sen avtobusga chiqmasingdan oldin bir qizcha munkib yiqilib tushdi. Boshi bilan qattiq

tushgan ekan, shekilli, chirillab yig‘lab yubordi. Hammaning ko‘zlarida achinishni ko‘rdim. Faqat o‘sha qariyaning qorachiqlari o‘zgarmadi, xolos.

– Xix, qoyil, – dedim beixtiyor.

– Bu esa avtobus haydovchisi, – dedi u boshqa bir surat uzatib.

Aslida bu surat emas, karikatura edi. Bosh tanaga nisbatan biroz katta qilib chizilgan, shimdagi cho‘ntaklar teskarisiga ag‘darib qo‘yligan, uning ichidan mayda kupyuralar yerga qush patidek ohistalik bilan tushardi.

Avtobus haydovchilarining daromadi havas qilgulik emasligini shunchaki bittagina rasm orqali aniq ifodalash hammaning ham qo‘lidan kelmasligini o‘sha payt yaxshi anglamasdim.

– E’tirof shart emas. Zo‘r chizishimni o‘zim ham bilaman, – dedi u g‘olibona tomoq qirib qo‘yarkan.

Bu gap ochig‘i meni kuldirdi. Ichimdagি gapni ushlab turolmadim:

– Kamtarga kamol deyishadi, – dedim beixtiyor.

Chamasi, u gapimni yanglish tushundi. Qovog‘i uyilib, qo‘lidagi qog‘ozlarni zo‘raki

zarda bilan portfelga joylay boshladi. Xayolimdan “Ijodkor qavmi maqtovga o‘ch bo‘larkan” degan fikr o‘tdi.

— O‘zingizga to‘g‘ri baho berdingiz, — dedim sekin. — Rostdan zo‘r chizarkansiz. Xuddi Pikassoga o‘xshab.

— Pikasso kubizmda chizgan, — dedi u to‘n-g‘illab.

Uni xafa qilib qo‘yganim o‘zimning ham dilimni g‘ash qildi. Uzr so‘rash uchun lug‘atimdan so‘z axtarar ekanman, u kutilmaganda kulib yubordi.

— Erta-indin o‘ttizga kiradigan odam yosh boladan arazlab o‘tirganimni qara.

Haydovchi navbatdagi bekat nomini aytgach, u o‘rnidan turdi. 2-3 qadam yurgach, boshida shlyapa bo‘lmasa ham, bordek bir harakat bilan bosh egib qo‘ydi:

— Yaxshi qoling, miss.

Ehtimol, ataylab qilgandir, bilmadim, lekin uning qilig‘i menga juda kulgili tuyuldi. Eshik yopilib kulgidan o‘zimni tiyib olgach, ba’zi suratlar qo‘limda qolib ketganini ko‘rdim: qora shlyapali odam va haydovchi karikaturasi.

...Ertasi kuni men hayot soat mexanizmidek bir xil kechishini yaxshiroq angladim. O'sha ob-havo, o'sha avtobus. Faqat tanish rassom men tengi yigit bilan janjallahшиб turardi.

– Tushunmayapsanmi, bolakay? Bu joyga men o'tiraman. Ana, shuncha bo'sh o'rindiq bor, istaganingga borib o'tir, faqat bunga emas!

– Nima, avtobusni sotib olganmisiz, aka? – yigitcha ham bo'sh kelay demasdi.

Ikkisining ham tik turganidan foydalanib talash bo'layotgan o'rindiqqa o'tirib oldim. Ikkovi ham "yarq" etib menga qaradi. Men esa hech nimadan xabari yo'q odamdek oynadan ko'chani tomosha qilardim. Yigit men bilan ham tortishishni ep ko'rmadi, shekilli, indamay nari ketdi. O'zimning joyimga surilib o'tirar ekanman, nimagadir u hozirgina bo'lgan tortishuv haqida gapirishini, yigitni haqorat qilishini kutardim. Yo'q, u indamadi. Shunchaki sovuqqina qilib "Ko'rganimdan xursandman", deb qo'ydi, xolos. Men ham indamay unga kechagi rasmlarni uzatdim.

— O‘zingda qolaversin, — dedi yana o‘sha ohangda, — bularni qiladigan ishim bo‘limgani uchun chizganman.

Keyin u menga bolalar bog‘chasida va yoshlar saroyida bezakchi dizayner bo‘lib ishlaganini gapirib berdi.

— O‘zing ayt, — dedi u alam bilan. — Tulki yoki ayiq hech ikki oyoqda yurganini ko‘rganmisan?

Kulgidan o‘zimni arang tiyib bosh chayqadim.

— Ana, — dedi u. — Men devor suratlarini ular aytgandek ahmoqona qilib chizsam, bolalar uyqudagi xayolparast bo‘lib o‘smanydimi? Ular meni ming marta ogohlantirishdi, eshitishniyam istashmadi. Lekin men baribir o‘zim istagandek o‘rmon chizdim: xavfli va tahlikali.

Burungi, bugungi va keyingi kunlarda uning oddiy emas, balki o‘taketgan realist ekanligini sezdim. U esa mening xayolparastligimdan oshkora kulardi. Bir kuni menga “Seni chizdim” dedi va bir qog‘oz uzatdi. Bu karikatura edi. Unda sochlari va yuzi menga o‘xshab ketadigan bir qiz chizilgan bo‘lib, oyoqlari ostida miyaga o‘xshash nimadir yotar, qiz esa boshini qashlagancha

anqayib turardi. Savol nazari bilan rassomga qaradim, shunda u tezlik bilan qora qalamda suratga yana nimadir qo'shdi.

Endi suratdagi qizning boshi tepasidagi bulutda "Miyam qani?" degan yozuv turardi. Kulib yubordim.

— Kechirasani, lekin men xayolparastlarni shunday tasavvur qilaman, — dedi jilmayib.

Keyin portfelidan boshqa rasm olib ko'rsatdi:

— Bu esa men!

Bu surat ham avvalgisi bilan deyarli bir xil edi. Faqat odamning ko'ksi o'yilgan, yuragi esa bir chetda, yerda yotardi.

— Suratni "Beqalb" deb atayman, — dedi kulib.

— Bu kulgili emas! — hatto o'zim ham sezdim, ovozim juda sovuq chiqdi. U birpas o'ylanib turdi-da, xo'rsingancha dedi:

— Haqiqatlar kulgili bo'lmaydi...

Bir hafta davomida men uning avtobusga faqat odamlarni chizish uchun chiqishini, fe'li sababli hech qayerda muqim ishlolmasligini, haddan ziyod ziyrak ekanini va qisqa qilib aytganda, Sherlok Xolmsning hayotdagi prototipi

ekanligini anglab yetdim. Tan olishim kerak, u chinakam daho edi. Uning mashhur va buyuk bo‘lib ketishiga faqat Italiyada tug‘ilmagani hamda tirik ekanligi monelik qilardi, xolos. O‘sha rassom sababli menda (hatto iste’dodim bo‘lmasa ham) chizishga havas uyg‘ondi.

Kunlardan bir kun u menga o‘z orzusi haqida gapirib berdi. U Moskvada, Kreml saroyi yonginasida shaxsiy ko‘rgazmasi tashkil qilinishini istar ekan.

—Tasavvur qil, — dedi u ko‘zlarini yumib. — Men chizgan portretlarni yuzlab odamlar tomosha qilyapti. Har birining ko‘zida umuman boshqa-boshqa ummonlar. Muhokama qilishadi, bahslashishadi... Asarlarimning oddiy qog‘oz nuxsasiga dastxat qo‘yib berishimni so‘rashadi... Men esa o‘z didimga binoan jihozlangan saroyimda tun-u kun chizaman. O‘lgunimcha chizaman. Ha!

U chuqur nafas oldi. Ehtimol, xo‘rsingandir, bilmadim. Keyin ko‘zlarini istamaygina ochdi.

— Xo‘sh, — dedi menga qarab.

Javoban shunchaki jilmayib qo‘yganimni ko‘rib “Sen qayerdan ham bilarding?” degandek o‘pkalangannamo qaradi. O‘ylanib qoldi. Keyin o‘scha alpozda qo‘shib qo‘ydi:

— Bu sayyora g‘irt telba! Alifni kaltak deyolmaydigan savodsizlarning oshig‘i olchi. Daholar esa Diogenning bochkasidek katalakda yashaydi.

...Oxirgi paytlar uni asabiy va xafa holda ko‘rardim. Ba’zan hatto kelganimni ham sezmay tinimsiz chizar, gohida qog‘ozlarni kuchli qo‘llari bilan g‘ijimlab avtobus oynasidan otardi. Fe’lini yaxshi bilganim uchun bunday paytda unga hech qanday savol bermasdim.

Keyin... Uni boshqa ko‘rmadim... Uch kun... Bir hafta... Bir oy... Uch oy. Shundagina men taniganimga hatto bir oy ham bo‘lмаган allaqanday rassom hayotimning katta qismini band etganini angladim. To‘rt oy ham shu zaylda o‘tgach, men boshqa chora izlay boshladim. Shahar markaziy parki biqinida joylashgan rassomlar pavilyoniga bordim. Mijozi yo‘q rassomlardan uni surishtira boshladim. Ba’zilar

uning ismini aytishim bilan aftini burishtirar, ba’zilari “U g‘irt telba-ku, nima ishingiz bor?” deb hayron bo‘lar, ayrimlar esa uni topolmayotganimni eshitib oshkora quvonardi. Shundagina men u nima sababdan bu yerda ishlamayotganini tushundim. Hech kimdan tayinli ma’lumot ololmaganidan keyin hafsalam pir bo‘lib, shalpaygancha uyga qaytarkanman, birdan qichqirib yubordim. Sotuvga qo‘yilgan ishlar orasida uning “Qichqiriq”qa taqlidan chizilgan surati bor edi. Narxini so‘raganimda moda jinnisi ekanligi va san’atni umuman tushunmasligi ko‘rinib turgan past bo‘yli qiz (ko‘rinishga qarab fol ochish rassomdan menga ham yuqqan ekan) menga arzimas narx aytdi. Sotib olishga oldim-u, lekin ichim battar bo‘shab qolganini, yuragimda rassomga nisbatan achinish hissini tuyayotganimni sezdim.

...Suratni xonamning bo‘sh devoriga osayotgan paytim ramka ortida rassomning imzosi va pastroqda telefon raqamiga ko‘zim tushdi!!! Men ham suratdek qichqirib yubordim. Jonholatda telefonga yopishdim. Uzoq gudok

ovozidan so‘ng go‘sakni qari va xasta ekanligi ovozidan sezilib turgan ayol ko‘tardi. Salomni ham unutib uni so‘radim. Ayol yo‘tala-yo‘tala menga uning Rossiyadan ekanini aytди va yangi raqamini donalab aytib turdi.

Gudok ovozini yana eshitarkanman, xayolimda uning Kreml yonida ekanini, ko‘rgazmasida dastxat qo‘yib berayotganini tasavvur qildim. Tabrik uchun so‘z axtarayotgan paytim tanish ovoz eshitildi:

– Kim bo‘lsangiz ham tez gapiring. Bandman, – dedi u negadir hansirab.

Titray boshladim.

– Men...men, – dedim zo‘rg‘a.

– Allo! – dedi keyin asabiy.

Shundagina o‘zimda gapirish uchun kuch topdim:

– Siz Edvard Munkni yoqtirmasdingiz, shekilli? – dedim.

– Ha, senmisan? – dedi keyin kulib. Men endi tez-tez, hayajon bilan gapirishda davom etdim:

– Rossiyada ekanligingizni aytishdi. Ko‘rgazma yaxshi o‘tyaptimi? Qaysi suratingiz eng ko‘p olqish oldi?

U birpas jim turdi-da, birdan sharaqlab kulib yubordi. Negadir qo‘rqib ketdim. Bu kulgi yig‘idan battar ayanchli edi. Xuddi o‘layotgan odamnikiga o‘xshab. Kulgidan to‘xtagach, oldingi vaqtlardagi kinoya bilan dedi:

– Men Moskvaga ko‘rgazma uchun kelganim yo‘q, miss. Ishlayapman. Yuk tashiyapman. Oilamni kimdir boqishi kerak-ku, axir.

Keyin esa mungli ohangda qo‘shib qo‘ydi:

– To‘rt oydan beri rasm chizganim yo‘q...





**Muxlisa
Ibrohimova**
10-sinf o‘quvchisi

Erik Karle

ZIQNA XONQIZI

(Ertak)

Oy atrofida yonar qo‘ng‘izlar tunda raqs tushishardi.

Erta tong. Soat beshdan quyosh o‘z nurlarini sochardi. Saxiy xonqizi uchib keldi. U barglarni ko‘rdi va nonushtani shu yerda qilishga qaror qildi.

Ammo shu payt o‘ng tarafdan ziqna xonqizi uchib keldi.

- Xayrli tong, – dedi saxiy xonqizi.
- Bu yerdan ket, – baqirdi ziqna xonqizi.
- Bu shiralarni men yeypman.
- Kel, biz birgalikda baham ko‘ramiz, – taklif qildi saxiy xonqizi.
 - Yo‘q, ular meniki, hammasi meniki, hammasi meniki, – yana baqirdi ziqna xonqizi. – Yoki sen ular uchun men bilan urishishni xohlarsan.
 - Agar sen shuni so‘raydigan bo‘lsang, yaxshi, – javob berdi saxiy xonqizi.
- U to‘g‘ri xonqizining ko‘ziga qaradi. Ziqna xonqizi o‘z ahvoliga e’tibor qaratdi va o‘ziga ishonchi biroz so‘ndi.
 - Ooo... sen men bilan urishish uchun loyiq emassan, chunki mendek kuchli emassan, – dedi ziqna xonqizi.
 - Unda nega boshqa xonqizini tanlamaysiz? – savol berdi saxiy xonqizi.
 - Men shunday qilaman, – qichqirdi ziqna xonqizi. – Men senga ko‘rsatib qo‘yaman, – u xuddi havo kabi uchib ketdi.
- Soat olti. Ziqna xonqizi yashil rangli hasharot bilan ko‘rishdi.

— Hoy, sen, — dedi ziqna xonqizi. — Urishishni istaysanmi?

— Agar sen shuni istasang, — dedi yashil rangli hasharot. — Chaqish achchiq bo‘ladi.

— Ooo... Sen yetarlicha katta emassan, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Soat yetti. U stag qo‘ng‘izi* bilan ko‘rishdi.

— Hoy, sen, — dedi ziqna xonqizi. — Urishishni xohlaysanmi?

— Agar sen shuni talab qiladigan bo‘lsang, — dedi stag qo‘ng‘izi jag‘larini ochib.

— Ooo, sen yetarlicha katta emas ekansan, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Soat sakkiz. U beshiktervatarga duch keldi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi. — Urishishni xohlaysanmi?

— Agar sen shuni xohlaydigan bo‘lsang, — dedi beshiktervatar old oyoqlari bilan cho‘zilib.

— Ooo, sen yetarlicha katta emassan, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

* Stag qo‘ng‘izi — Birlashgan qirolikdagi eng ko‘zni quvnatadigan hasharot bo‘lib, bug‘i shoxiga o‘xshash katta jag‘larga ega.

Soat to‘qqiz. Ziqna xonqizi chumchuqqa yem bo‘lishiga oz qoldi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi. — Uriishishni xohlaysanmi?

— Agar sen ham shuni xohlaydigan bo‘lsang, — dedi chumchuq o‘tkir tumshug‘ini ochib.

— Ooo, sen yetarlicha katta emassan-ku, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Soat o‘n. Ziqna xonqizi katta qisqichbaqani ko‘rdi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi — Uriishishni xohlaysanmi?

— Agar sen shuni istasang, — dedi qisqichbaqa tirnoqlarini cho‘zib.

— Ooo, sen yetarlicha katta emassan-ku, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Soat o‘n bir. Ziqna xonqizi borib skunsga urildi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi. — Uriishishni xohlaysanmi?

— Agar sen ham shuni xohlaydigan bo‘lsang, — dedi skuns dumini ko‘tarib.

— Ufff, sen yetarlicha katta emassan-ku, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Tushki soat o'n ikki. U katta bo'g'ma ilonni ko'rdi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi. — Urishishni xohlaysanmi?

— S-s-s-s-s agar sen ham shuni xohlaydigan bo'lsang, s-s-s-s-s, — dedi bo'g'ma ilon.

— Ufff, sen yetarlicha katta emassan-ku, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Soat bir. Ziqna xonqizi uchib ketayotib sirtlonga ko'zi tushdi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi. — Urishishni xohlaysanmi?

— Agar sen ham shuni xohlaydigan bo'lsang, — dedi sirtlon dahshatli kulib va qo'rqinchli tishlarini ko'rsatib.

— Ufff, hattoki sen ham yetarlicha katta emassan-ku, — dedi ziqna xonqizi va yana uchib ketdi.

Soat ikki. U gorilla bilan ko'rishib qoldi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi. — Urishishni xohlaysanmi?

— Agar sen ham shuni xohlaydigan bo'lsang, — dedi gorilla ko'kragiga katta mushaklari bilan urib.

— Ufff, sen yetarlicha katta emassan-ku, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Soad uch. Ziqna xonqizi yugurib ketayotgan edi, karkidonga duch keldi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi. — Urishishni xohlaysanmi?

— Agar sen ham shuni xohlaydigan bo‘lsang, — dedi karkidon shoxini xonqizi tomon tushirib.

— Ufff, sen yetarlicha katta emassan-ku, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Soad to‘rt. U fil bilan uchrashib qoldi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi. — Urishishni xohlaysanmi?

— Agar sen ham shuni xohlaydigan bo‘lsang, — dedi fil xartumini ko‘targancha ulkan tishlarini ko‘rsatib.

— Ufff, sen yetarlicha katta emassan-ku, — dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Soad besh. U dengiz o‘rtasida katta kit bilan ko‘rishib qoldi.

— Hoy sen, — dedi ziqna xonqizi. — Urishishni xohlaysanmi?

— Agar sen ham shuni xohlaydigan bo‘lsang, — dedi kit.

– Ufff, sen yetarlicha katta emassan-ku, – dedi ziqna xonqizi va uchib ketdi.

Soat beshdan o'n besh daqiqa o'tganda xonqizi kitning qanoti oldiga yetib keldi.

– Hoy sen, urishishni istaysanmi?

Ammo u javob ololmadi, shunday qilib, u uchib ketdi.

Soat beshdan o'ttiz besh daqiqa o'tdi, xonqizi kitning boshqa bir qanotiga yetib keldi va dedi:

– Hoy sen, urishishni istaysanmi?

Ammo yana javob olmadi. Shunday qilib, yana uchib ketdi. Endi soat beshdan qirq daqiqa o'tdi. Ziqna xonqizi kitning dumiga yetib keldi va dedi:

– Urishishni istaysanmi? – dedi-yu, dumi ziqna xonqizini urib yubordi. Ziqna xonqizi dengiz va quruqlikni kesib o'tib ketdi.

Soat olti. Ziqna xonqizi hammasi qayerdan boshlangan bo'lsa, shu yerga yetib keldi.

– Voy, qaytib keldingizmi? – dedi saxiy xonqizi. – Siz judayam och bo'lsangiz kerak? Hali ham birozgina gulshira qolgan. Siz kechlik qilib olsangiz bo'ladi.

— Ooo, rahmat sizga! — dedi ho‘l va charchagan och xonqizi.

Oz vaqt ichida barcha gulshiralar yeyilib tugadi.

— Rahmat sizga, — dedi qornini to‘ydirgan xonqizi.

— Xush kelibsiz, — dedi xonqizi va ikkisi ham uxlagini ketishdi.

Yonar qo‘ng‘izlar esa butun kun uslashdi. Kechqurun esa ular yana tashqariga chiqishdi va oy atrofidagi go‘zal raqlarini davom ettirishdi.

Muxlisa Ibrohimova tarjimasi



Zulshayo
Mingboyeva
9-sinf o‘quvchisi

XAYOL

Chizdirar sog‘inchning rasmini,
Yurakning amri-la hissiyot.
G‘ururni o‘ldirib, qo‘li qon,
Va xursand xayolot.

Osmонning yuzini o‘pajak,
Sen anglab yetmagan hislarim.
Oh hayot, izlama, topmaysan,
Ruhimning izlarin.

Oxirgi nuqtani qo‘ymoqni,
So‘radim, yolvordim, bu – tabiiy.

Sen bo‘lsa jilmayib, qo‘yding-ku,
Nuqtani davomiy...

TUNGI SAYR...

Men kezaman bu oqshomni oqqa bo‘yab,
Qulog‘imga zirak qilib yulduzlarni.
Samolarga uzalgancha bo‘yim bo‘ylab,
Artib keldim oyning dog‘li yuzlarini.

Qo‘llarimda yo‘rgaklangan bir to‘da his,
Ingranadi qaytmoq uchun hujrasiga.
Daraxtlarga bosh eggancha cho‘kdim-u tiz,
Yozib qo‘ydim har yaproqqa bir qasida.

Oyog‘imni kishanlaydi har bir qadam,
Tovonimga bosh suqadi chaqir toshlar.
Shamollarning tarsakisi qaqlash tar tan,
Yurak meni qay yerlarga keldi boshlab.

Ovozimning yetgunicha baqirsam-u,
Boshi osmon tog‘laridan kelmas sado.

Bulutlarni ketar chog‘i chaqirsam-u,
Mening uchun tarnovlardan tomdi zardob.

Men kezaman bu oqshomni oqqa bo‘yab...

ERK SO‘ZI

Zaminning kokili to‘zg‘igan,
Tonglarni alqaydi dildalli.
Dunyoga o‘gaysan, dedilar,
So‘z aytmay istadim tajalli.
Menlikdan senlikka bir qadam,
Bir nuqta bizlikka guvohdir.
She’riyat kaftida gurkirab,
O‘sytgan bu erkadir, bu ohdir.
Nuqtaning ko‘rinmas oxiri,
Bor kuchim jimlikka asira.
Yanoqlar qontalash tus olar,
Ko‘zguga boqishdan xavfsirab.
Keksayib boradir dardlarim,
Ko‘ngilni suqqan yo‘l emas berk.
Yashadim tikilib qog‘ozga,
Qo‘llaring ko‘zimga yozdi Erk.
Qo‘llaring ko‘nglimga yozdi Erk.

HAYRAT

Bir juft qora kovush, bir juft oq tuqli,
Tumshug‘i yer o‘pib, turar yonma-yon.
Men esa bobomning kaftlaridagi,
Ajinlar soniga yeta olmayman.
Mana, ketmon sopi qoldirgan izlar,
Mana, dalamizday yam-yashil tomir.
Shunda shuurimda qad rostlar hayrat,
Dehqon bo‘lgan asli nahot Ona Yer?!
Adashdim sanoqdan bu gal ham, hayot,
G‘ayratim, shiddatim chetga tisladi.
Asrlar qaritmas dardlar qoshida,
Oqargan sochlardan qora izladim.
Bir juft qora kovush, bir juft oq tuqli...

DAHSHTLI RO‘YO

Gul ochgan har narsa bog‘ emas ekan,
Gullagan kulni-da sepdi ko‘zimga.
Daf’atan o‘zgardi borliqning rangi,
Ko‘ngildan qoraxat terib izimga.

Xoxolab ustimdan kular kimlardir,
Tilim kishanlangan, kelmas xo‘rligim.
Menga alam qilar faqat birgina,
Kulganlar ichida o‘zim borligim.

FARYOD

“Ko‘rmay yashab ketganlar bor baxtiyor,
Bilmay yashab ketganlar bor baxtiyor”*.
Tillariga chok tushgan-u, qalbini,
Tilmay yashab ketganlar bor baxtiyor.

Hayqirarlar: “Cho‘lponning avlodiman,
Qonidagi isyonning avlodiman”.
Tomiridan chirt uzilib, yana der:
“Boshim – osmon, osmonning avlodiman”.

Barmoqlarni kishanlagan baxtmidi?
Bu dunyoda o‘lik faqat ahdmidi?
Ro‘yolarda buzib butun olamni,
Uyg‘onganda uyqudagi shaxdmidi?

* Muhammad Yusuf satrlari.

Tanglayimda tomir otganida so‘z,
Dorlariga boshni sotganida so‘z.
Bog‘bonliging sira unutma, Turon,
Gulzoringda gullab yotganida so‘z.

KET

Bo‘g‘zimni changallab turgan ne edi?
Alvido demoqqa salomingmi, ayt?
Sog‘inchdan qaqragan nigohlar haqqi,
Ket oydin qaroqlar tutmasidan may!
Ket!
Sababsiz, inkorsiz va kulgi bilan,
Qo‘l silta o‘tmishga, xayr de faqat.
“Ko‘rishguncha”lardan bezigan yurak,
Ko‘rishguncha ham to bitmishdir toqat.
Sen o‘zi kim eding, ro‘yolarimdan,
Ruhing choklarini hech so‘tolmagan.
Axir Seni sarob deb atash mushkul,
Chunki Sen Men eding men yetolmagan.
Ket!
Oydin qaroqlar tutmasidan may!



Diyora
Saidqulsova
9-sinf o‘quvchisi

YURT O‘G‘LONI

Bostirib kelsa g‘anim,
Bo‘lar xalqning qalqoni.
Ayamas jonin – tanin,
Yurtimning mard o‘g‘loni.

Zahmat chekib tun-u kun,
Xalqiga sarflar kuchin.
Orom ham olmas, butun,
Jonin berar yurt uchun.

Vatan, oilam deb o‘tar,
Sadoqatdir har oni.

Eliga tayanch bo‘lar,
Yurtimning mard o‘g‘loni.

YANGI YIL

Shodliklarga burkanar olam,
Sening noming birla yayar dil.
Biram fayzli bo‘lar tashrifing,
Quchoq ohib kelgin, Yangi yil!

G‘am-g‘ussani ketkazib nari,
Har bir uyda shu'lalar porlar.
Betoqatman, kutganim sari,
Ular meni zavq sari chorlar.

Anduh o‘rnin egallar quvonch,
Yaqinlarga shodlik sovg‘a qil.
Yangi hayot eshiklarini och,
Quchoq ohib kelgin, Yangi yil!

BUVIJON

Qalbimdagи jo‘shqin ummonim,
Boshim silab, doim mehribon.
Xush iforli go‘zal rayhonim,
Baxtimga bor bo‘ling, buvijon.

Nomingizni dildan qo‘ymadim,
Mehringizga to‘ymas keng jahon.
Mehnatingiz tinmay kuyladim,
Baxtimga bor bo‘ling, buvijon.





**Sojida
Mustafoqulova**
9-sinf o‘quvchisi

YOMG‘IR

Mayin yomg‘ir ovozi –
Ikki ko‘zimda ko‘zyosh.
Qalbda og‘riq sadosi,
Aytolmayman, yo‘q sirdosh.
Duv-duv to‘kkan ko‘z yoshga,
Yomg‘ir bo‘lar hamohang.
Yuragimda dard toshgan,
Dalda – malham yo‘q, qarang.
Yurak tinchlanmas bir zum,
Yomg‘irlar bilan birga.
Quyosh qilmay tabassum,
Ko‘ndirdi-ku taqdirga.



Pokiza
Suyunboyeva
9-sinf o‘quvchisi

BAXT TILI

Yaralganmiz biz sen-la ongli,
Har bir so‘zing bergaydir bilim.
Beqiyossan, o‘tmishing shonli,
Vatan kabi onajon tilim!

Senga singgan Navoiy ruhi,
Sen-la to‘lgay g‘ururga dilim.
His etaman baxtning shukuhin,
Baxtim bergen – Onajon tilim!



Sarvinoz
Yigitaliyeva
9-sinf o‘quvchisi

SADOQAT KUYI

She’rda yangrar sadoqat kuyi,
Va eslatar Zulfiya yodin.
Biz tinglaymiz ko‘ngilga quyib,
Shoiraning go‘zal ovozin.

Jo‘r bo‘lgancha bahoriy navo,
Sog‘inchlarni qo‘yar tuydirib.
O, she’riyat, ilohiy ma’vo,
Asir qilding dilni suydirib.

So‘ng tushundim “Hayot kitobi”n,
Bulbullarga men bo‘ldim hamroh.
Boqiy she’rning har bir xitobin,
Dilga yozdim ko‘zim to‘la yosh.

She’rda yangrar sadoqat kuyi...





**Gulyuз
Husanova**
9-sinf o‘quvchisi

ONALARGA

Shodlikka to‘lar bugun,
Qoldirmay dilda tugun,
Jo‘shib aytay tun-u kun,
Onalarga ming rahmat!

Mehri quvvat olamga,
Qalbi botmasin g‘amga,
Omon bo‘lsin har damda,
Onalarga ming rahmat!

BIRINCHI MUALLIM

Alifboni o‘rgatib,
Aqlimni o‘stirgan zot.
Birinchi muallimdan
Qarzdorman umrbod.

Tilim burroligida,
Uning xizmati bordir.
Mehribon ustozimsiz,
Shoirligim bekordir.

Mashaqqatlar belgisi –
Sochidagi har bir oq.
Men uning ishonchini
Oqlasam deyman har chog‘.

Garchi yillar o‘tsa ham,
U bizning g‘amimiz yer.
Doimo yaxshi bo‘lib,
Yaxshi odam bo‘lsin der.



Ruxshona
Abdullajonova
9-sinf o‘quvchisi

YANGI YIL

Qorboboni kutar bolalar,
Shodliklardan to‘lib-toshgan dil.
Yangi kunda yangi orzular,
Quvonch olib kelsin, Yangi yil.

Archa atrofida aylanar,
Dasturxonda noz-ne’mat har xil.
Baxt rishtasi dilga boylanar,
Quvonch olib kelsin, Yangi yil.



**Otabek
Burhonov**
9-sinf o‘quvchisi

QISH KELADI

Qish keladi quloch ochib,
Atroflarga qorlar sochib.
Va qushlar ham issiq-issiq,
Go‘shalarga ketar qochib.
Qish keladi sovuq otib,
Yursa oyoq qorga botib.
Daraxtlar ham kiyishar to‘n,
Shu lahzada muzdek qotib.
Qish keladi quvonch olib,
Yuraklarga shodlik solib.
Nishonlaymiz Yangi yilni,
Eski yillar ortda qolib
Qish keladi.



**Mushtariy
Toshpo'latova**
9-sinf o‘quvchisi

AYIQPOLVON

O‘rmonda juda ochko‘z,
Yashardi ayiqpolvon.
U doim asalga do‘st,
Bunga bo‘lmangiz hayron.

O‘y surardi kuniga
Asalga bo‘lib maftun.
Asalari iniga
Qo‘lin tiqibdi bir kun.

Uni taladi boplab
Asalari galasi.
Qochdi boshin quchoqlab,
Qochdi hatto mazasi.

Nafsin tiyganda shu dam,
Talanmasdi ariga.
Endi jon og‘risa ham,
Chidaydi-da bariga.





Gulسانам
Norqulova
9-sinf o‘quvchisi

KO‘KLAM KUYI

Bog‘larga kirsangiz bahor gullari,
Qirlarga chiqsangiz, maysalar yayrar.
Sabo og‘ushida quvongan bari,
Andalib misoli betinim sayrar.

Borliq ham suyungan xabarin topib,
Qushlarning chug‘uri yetar osmonga.
Shabbodalar o‘ynar har yonga chopib,
Tahsinlarin aytib ko‘klamiy tongga.

Zaminga taralgan eng shirin ifor,
Sehridan mast bo‘lib kuylar g‘unchalar.
Har gal shunday tashrif etganda bahor,
Qo‘shilib hislar ham dildan kuy chalar.





Xonzodabegim
Sattorova
9-sinf o‘quvchisi

OILAMIZ TOJLARI

Yoshligimdan yoz mavsumida bobomning uylariga borsak, ketayotgan chog‘imizda “Bu yerda yana qolaman”, – deb to‘polon ko‘taraman. Eng qizig‘i, ukam va singlim mendan badtar edi. Men hech bo‘lmasa “ketmayman” deb g‘ingshirdim. Nari borsa, yig‘lashga tushardim. Ammo ukalarim opamning (bizning oilada nevaralar buvisini shunday atashadi) orqasiga yashirinishardi yoki bitta xonaga kirib, eshikni qulflab, “Dod, ketmayman!” deb dag‘dag‘a

qilishardi. So‘ng esa ayam va dadam bilan hech bo‘lmasa bittamiz ketishimiz kerak bo‘lgan, katta farzandligim uchun o‘sha odam har doim men bo‘lganman.

Maqtanish emas-ku, ammo nevaralar ichida baribir bobo va buvi uchun ajralib turadigani bo‘ladi. Opam va bobom uchun o‘sha nabira men edim. Aytishlariga qaraganda, qishloqdan shaharga uch yoshligimda ko‘chgan bo‘lsak, opamdan ajralish menga juda qiyin bo‘lgan ekan. Ammo shunday bo‘lsa-da, eng qimmatli xotiralarim u yerda qolgan.

Hali maktabga bormagan paytlarim har safar qishloqqa borganimda opam menga hazillashib: “Seni men dunyoga keltirganman”, – derdi. Men ham buni rost tushunib, onamdan: “Aya, rostdan ham meni opam dunyoga keltirganmi?” – deb so‘rardim. Onam ham kulib “Ha” deb qo‘yardi.

Tabiiyki, opamni men kabi boshqa nevaralari ham jonidan ortiq ko‘rishardi. Amakimning qizlari bilan janjallashsak, faqatgina opamni talashganimizdan yoki bir-birimizdan qizg‘anganimizdan janjallahshardik.

Boshqa viloyatlarga to'y yoki sayohatga borish kerak bo'lsa, opam u yerga hech qachon mensiz bormas edi. Xullas, opamning eng erkatoy nevarasi edim. Albatta, bu erkaliklar ham vaqtinchalik edi. Chunki singlim tug'ilgandan keyin men ancha "urf'dan qoldim.

Shunday bo'lsa ham, opam va bobom hammamizni barobar yaxshi ko'rishini barchamiz bilardik.

Har borganimda bobomning menga bergen bir nasihatini dunyodagi eng zo'r motivatorlarning mingta gapiga alishmayman. Bobom biz uchun haqiqiy ibrat maktabi bo'lgan.

Hovlimiz opam va bobom bilan yanada fayzli edi. Opam va bobom biron joyga ketgan paytlar uyimiz xuddi tomi yo'q uyga o'xshab qolardi. Men dunyodagi eng baxtli insonlardanman. Chunki ota-onam ham yonimda, ularning men uchun aziz ota-onasi ham yonimda...



Pokiza
Abduslayeva
9-sinf o‘quvchisi

“LAYLAT UL-QADR” KECHASIDA

Juma kuni edi, men va singillarim uyda edik. Hamma o‘z ishi bilan ovora. To‘satdan chiroq o‘chib qoldi. Biz qorong‘ilikda qo‘rqqanimizdan yugurib, onamning oldilariga borib, yonboshlariga o‘tirib oldik. Zerikib qolmaslik uchun suhbatni o‘zim boshladim:

- Ona, bizga bolalikdagi esingizda qolgan voqealardan aytib bering, – dedim yuziga tikilib.
- Mayli, qizim. Eng hayajonli va qiziqarlisisini aytib beraman, – javob qildi va so‘zlay boshladi.
- O‘sha vaqtida olti yo yettinchi sinfda o‘qir

edim. Dadam, onam va men televizor tomosha qilayotgan edik. Opa-ukalarim allaqachon uxbal qolgandi, men yoz kunlari kech uxlar edim. Bu kecha “Laylat ul-qadr” kechasi ekanligi ma’lum bo‘ldi. Men bu kun haqida juda ko‘p eshitgandim. Lekin hech mo‘jizaning guvohi bo‘lmagan edim. Oppoq soqolli, nuroniylar, taqvodor insonni men ham ko‘rishni niyat qilib yurar edim.

Insonga nogahon yo‘liqib, bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘lish bu zotga, ya’ni Xizrga xos belgi edi.

– Qizim, kirib dampingni ol, kech bo‘lib qoldi, – dedi onam.

Xonamga kirdim. Qarasam, opa-ukalarim uxbal yotibdi. Ular juda uyquni yaxshi ko‘radi. Men ham joyimga yotishga taraddudlandim. Men derazaning yaqinida yotardim. Bir payt derazaga qarasam, oppoq soqolli odam ko‘rindi. Charchaganman shekilli, deb unga parvo qilmadim. Ha, bularning barchasi haqiqat bo‘lib, men bir necha daqiqalar oldin xotirlagan insonim edi. Juda qo‘rqdim. Ko‘rpamning tagiga kirib ketdim. Biroz vaqt o‘tgach, ketdimikan deb qarasam, hali ham shu yerda turardi. Keyin menga qarab: “Qo‘rqma, qizim”, – dedi. Ammo

men hamon qo‘rquvda edim. Shu bilan men u tomonga qaytib qaramadim. Keyin uxbab qolibman.

Ertalab tursam, hamma yoq tinch. Uydagi-larga bo‘lgan voqeani aytib berdim, ular ishonmadilar. Men ularga batafsil tushuntirishga harakat qildim, hamma hayron qoldi. Shunda dadam: “Qizim, unda sen Xizr boboni ko‘ribsan”, – deb samimiy tabassum bilan menga qaradi. To‘lqinlanib ketdim. Ko‘zlarimga yosh keldi. Allohgaga shukurlar aytdim. Taqdir meni shunday zot bilan uchrash tirganidan juda xursand bo‘ldim.

Onam bilan dildan bo‘lgan suhbatimiz hali-hanuz yodimda. Bu voqeaga kimdir ishonar, kimdir esa yo‘q. Ammo men ishondim. Suhbatimiz yakunidan so‘ng osmonga qarasam, oy va jamiyki yulduzlar ham bizni tinglayotgandek o‘zgacha mehr va zavq bilan charaqlab turar edi.

Suhbatimiz tugashi bilan chiroq ham yondi...



Aziza
Rahmatullayeva
9-sinf o‘quvchisi

SOG‘INCH

O‘rnidan jiladi nihoyat poyezd,
Temir yo‘llarini boradi yutib.
Yaqinlarim yana ko‘rish baxti-yu,
Cheksiz hayajonim boryapman yutib.

Mana uzoqlashib ketyapman asta,
Nuqtaga aylangan tanish vokzaldan.
Yuragim tubida bir g‘ashlik bormi?
Shunaqa edimmi yoxud azaldan?!

Kezinar xayolda qora ko‘lanka,
Negadir baxtiyor emassan, yurak.

Senga kunlaringni yil qilib kutgan,
Suyganlaringdan o‘zga ne kerak?!

Yo‘l yiroqlashgani sari tobora,
Hijronim armonga borar aylanib.
Biroz oldin aziz chehralar endi
Ko‘rilmasligi borar anglanib.

Bu nimasi yana ko‘zlarim nammi?!
Yig‘lagim kelganga o‘xshar, aftidan.
O‘zimga kelaman sho‘rxok tomchining,
Yuzimni kuydirar qaynoq taftidan.

Boqdim derazadan yana so‘nggi bor,
Yo‘llar ham ko‘nglimga ajib his solar.
Yuragim, ehtimol, olisda meni
Sog‘ingan bir qalbning taftini olar.

OQSHOM

Kecha so‘lim.
Shabboda yengil.
Yulduz porlar osmon ko‘ksida.

To'lqinlanar suv ham muttasil,
Ko'lga tushgan oyning qasdida.

Zaif nurdan
yorishmas olam,
Tun ham singgan sukut qa'riga.
Zulmat go'yo ulashganday g'am
Majnuntolning o'ksik bag'riga.

So'ng to'planar
bulut osmonga,
Kor ham qilmas oyning dashnomi.
Va joylashib bir-bir har yonga,
Oysiz qolar ko'ngil oqshomim...

ORZU

Bezovtalik yo'qolar sassiz,
Ko'nglim sen-la topadi taskin.
Va qayg'ular qilganda asir,
Yana seni izlayman sekin.

O'zligimni tanitding qalbda,
Umidlarim so'nayotgan zum.

So‘zlamoqqa yaramay qolgan
Lablarimga berding tabassum.

Otash misol yurak qo‘rida
Olov bo‘lib yashagan mangu.
Bemorlikni toptirgan zavol,
O‘zingdirsan, malhamim – orzu.

RAYHON

Bo‘ylaringni shamollar eltdi,
Ifor qo‘shib tong havosiga.
Ko‘kdan uchib qushlar ham keldi,
Kuylar qo‘shib dil navosiga.

Chaman kabi ariq bo‘ylari,
Go‘zallikka burkangan bu on.
Seni sevdim, buvimjonimning
Chakkasini bezagan rayhon.

UNUTMA

Dunyolar tor kelganda ko‘zga,
Yo topganda kimdandir ozor.
Zor bo‘lganda bir shirin so‘zga,
Bir do‘sting bor, unutma zinhor!

Kechalari qochganda uyqu,
Yuragingni qoplaganda qor.
Seni asir etganda qayg‘u,
Bir do‘sting bor, unutma zinhor!

Changallasa xavotir joning,
G‘ussalardan bo‘lsang gar bemor.
Baham ko‘rgin, menga ishonib,
Bir do‘sting bor, unutma zinhor!

Yaqinlaring gar o‘girsa yuz,
Taskinlarga bo‘lavversang zor.
Senga mehrin tutguvchi hanuz,
Chin do‘sting bor, unutma zinhor!

QISMAT BITIGI

(*O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarini o‘qib*)

Nima ko‘rding dunyoga kelib,
Jisming hatto topmadi mozor.
Xasta qalbda asrab yodingni,
Yoring kutdi seni intizor.

Senga atab tikkan qiyiqlar:
Bir chetida “K.R” harfi bor.
Iplari ham ketdi titilib,
Yoring ko‘zyosh to‘kkanda zor-zor.

Seni solib muzning bag‘riga,
Va dushmanlar changallatdi qor.
Umring shami so‘nayotgan dam,
Robiyaga aytildi yor-yor.

Yo‘q, o‘kinma, kutmadi, dema,
Haykalingga peshona bosdi.
Sog‘inch yuvgan qalbi tubiga,
Ishq o‘tidan dostonlar yozdi.

O'TINCH

Iymon nuri bilan pokla qalbimni,
Sendan o'zgasidan so'ramam panoh.
Seni sevganlarni sen uchun suygum,
Muhabbatim pinhon sen uchun, Olloh.

Qiyomat kunida farishtalarning
“Gunohi qani?” – deya qotsin boshlari.
Savobim tortmoqqa kelganda navbat
Sinib ketsin tarozining toshlari!

Meni some etgin islom yo'liga,
Shundayin taqdirni nasib et, Olloh.
Guvohlik beraman: elching Muhammad
Va yo'qli sendan o'zga bir iloh!

ILINJ

Sovib borayozgan qalbim tubida
Shu'lalar misoli porladi ilinj.
So'nmasin, deya kecha-kunduz,
Fikrim tarqoq, xayollar betinch.

Kuydirmasin, deya tafti jismimni,
Uni yuragimga yashirib turdim.
Armonlar bo‘roni o‘tolmasin deb,
Sabrim zanjiridan panjara qurdim.

YURAK

Yurak qafasdagи misoli bulbul,
Xonishi zabondan topar istiqbol.
Lekin har bir jonda kuylayvermas u,
Ishqi bor jismda ko‘rgay istiqlol.

U kuyni tushunmoq osonmas har dam,
Zotan, qush tilini faqat anglar qush.
Kimir shu navo deb tebratar qalam,
Kimgadir esa bu ortiqcha yumush.

SHE’RIYAT NEDIR?

Bir savolga javob axtardim tinmay,
She’riyat nimadir aslin olganda?
Izlagan baxtingni topmoqmi yoki
Ayrilishmikan bir qadam qolganda.

Qirg‘oqqa elitish istamas gohi,
Girdobiga tortgan ilhom ummoni.
Shoir hayotida asli she’riyat –
Dardidan go‘zallik yaratgan oni.

SUKUNAT

Olam aro jimlik hukmron,
Butun borliq bosh eggan tunga.
Suhbatlashar zabonsiz bu on,
Har bir daraxt bo‘lib afsungar.





**Mushtariy
Muhammadjonova**
8-sinf o‘quvchisi

DUOGO‘YIM

Ro‘molingiz misli boshingizga toj,
Yarashib turadi sizga rayhon ham.
Kuylab beray o‘zim sizga “Dilxiroj”,
Yayraylik, buvijon beg‘am, shod-xurram.

Fayzlarga to‘lgandir, nurli yuzingiz,
Uyimiz malagi, misli farishta.
Oltindan-da ustun, aytgan so‘zingiz,
Bizlarga o‘rnaksiz doim har ishda.

OSMON YIG‘LAR

Osmon yig‘lar, to‘kib yig‘lar ko‘z yoshin,
G‘am-anduhdan xam qilib boshin.
Faryodlari – momaqaldiroq,
Alamidan chaqnaydi yashin.

Maysa yuzin yuvar tomchilar,
Yuragimga nedir sanchilar.
Tund falakning ostida meni,
Go‘yo kimdir tinmay qamchilar.

Nechun jimlik, nechun sukunat?
Qalbim ichra mavjlanar hayrat.
Tong otmoqda. Azon sadosi
Malham bo‘lar, bitar jarohat.

Dardlaridan forig‘ bo‘ldi ul,
Meni etib g‘am-anduhga qul.
Chehrasida mehr porlaydi,
Endi bog‘da sayraydi bulbul.

YOMG‘IR

Yomg‘ir, mening sirli, ajib dugonam,
Dardlarim olgani tez-tez kelib tur.
Tomchilaring ichra yo‘qolsin yoshim,
Sen esa men bilan yuragimga yur.

Yomg‘ir, qara, qalbim gulzori ichra
Biror bir chechakni ko‘rmaysan hargiz.
Otashlar ichidan yorib o‘t bu dam,
Sahromda ochilsin go‘zal bir nargis.

Yomg‘ir, senga aytish xayr-u xo‘shlar
Oson emas, aslo bilgil men uchun.
Ammo senga menday zorlar ko‘p mudom,
Sendan gina qilay, aytgin, men nechun?!

O yomg‘ir, men seni kutaman yana,
Nargislар to‘lguvchi ulkan sahromda.
Sen esa kelasan darchalar aro,
Shu ondan yuragim urar maromda.

Adabiy-badiiy nashr

*Halima
Xudoyberdiyeva
nomidagi
Fod maktabi*

*o‘quvchilarining ijodidan
namunalar*

Muharrir Said Ashirov
Badiiy muharrir Dilmurod Jalilov
Musahhih Adolat Mustafoyeva
Kompyuterda sahifalovchi Umida Valijonova
Dizayner Aziz Xudoyberdiyev

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016

Bosishga 2024-yil 12-iyunda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 ^{1/32}, Times New Roman garniturasi.

Ofset bosma. 4,5 shartli bosma taboq. 3,8 nashr tabog'i.

Adadi 200 nusxa. raqamli buyurtma.

Bahosi shartnomaga asosida.

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69